

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

ESHBOYEVA MUNIRA TO`RAQULOVNANING

“5220100 – Filologiya (O`zbek filologiyasi)” yo`nalishi
bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

**UZLUKSIZ TA`LIM TIZIMIDA FONETIKA
SATHINING O`QITILISHI**

(umumiy o`rta ta`lim maktabi va akademik litsey misolida)
mavzuida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots. E. Jabborov

“Himoyaga tavsiya etildi”

Filologiya fakulteti dekani

_____ dots. I.Xudoynazarov

“_____” ______2013

Qarshi shahri – 2013

MUNDARIJA

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	3
--	----------

I BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA FONETIKA SATHINI O'QITISH MASALALARI.

1.1. Fonetika o'qitishning maqsad va vazifalari.....	6
1.2. Fonetika sathining mazmuni va mundarijasi.....	8
1.3. Fonetika sathini o'qitish usullari.....	11
1.4. Fonetikani o'rganishda kommunikativ savodxonlikni oshirish usullari.....	28
1.5. Fonetikani o'rganishda mavzulararo va fanlararo aloqadan foydalanish Usullari.....	30
Bob bo'yicha xulosa.....	34

II BOB. IMLO QOIDALARINI O'QITISH USULLARI

2.1. Unlilar imlosi.....	37
2.2. Undoshlar imlosi.....	39
2.3. Asos va qo'shimchalar imlosi.....	40
2.4. Qo'shib va ajratib yozish.....	42
2.5. Bosh harflar imlosi.....	44
2.6. Chiziqcha bilan yozish va ko'chirib yozish qoidalari.....	45
Bob bo'yicha xulosa.....	47

XULOSA.....	49
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	52
--	-----------

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

BMIning dolzarbligi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan o‘q yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga, ularning intellektual salohiyatiga jiddiy e‘tibor berila boshlandi. Yosh avlodni yuksak ma‘naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, yuksak vatanparvar, buyuk davlat barpo etish yo‘lida ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir. Respublikamiz Prezidenti “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida bu xususda shunday degan edi: “... oxirgi yillarda ta‘lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko‘lami va mohiyatiga ko‘ra ulkan ishlarimiz biz ko‘zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo‘lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma‘naviy yuksalishi yo‘lida mustahkam zamin yaratdi, desak hech qanday xato bo‘lmaydi”¹.

Hukumatimiz mustaqillik yillarida ta‘lim tizimini tubdan isloh qilishdek xayrli ishni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da belgilangan vazifalar to‘laqonli amalga oshirildi. Respublikamizda uzluksiz ta‘lim tizimi shakllandi. Bu tizimda ona tili ta‘limi ham muhim o‘rin tutadi. Zero, har jihatdan shakllangan, yuksak salohiyatli shaxsni tarbiyalashda o‘zbek tilining o‘rni va roli juda katta.

Ma‘lumki, o‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sanaladi. Shuning uchun ham ta‘lim tizimining birinchi bo‘g‘inida o‘zbek tilining o‘qitilishi davlat ahamiyatiga molik vazifa sanaladi. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko‘pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlab olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarimiz, udum va an‘analarimiz ruhida tarbiyadashda ona tili fanining tutgan o‘rni va ahamiyati benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil Respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tarbiyalash masalasi ko‘ndalang bo‘lib turgan bir sharoitda bu fanning o‘qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

¹ Karimov Islom. Yuksak ma‘naviyat –yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat. -2008, 64-bet.

Ana shunday bir sharoitda uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'larida tilning biror sathini o'rganishda uzviylik va uzluksizlikka amal qilish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilining dastlabki sathi sanalgan fonetika bo'limini umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda uzviylik va uzluksizlik prinsipi asosida berilishi hamda bu sathni o'quvchi yoshlarga o'qitishda zamonaviy o'qitish usullari va metodlaridan foydalanish yo'llarini tadqiq etish ishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Uzluksiz ta'lim tizimida yozma ishlar va ularni o'tkazish masalalari bir qator tilshunos va metodist olimlarning ishlarida umumiy tarzda o'rganilgan. Nizomiddin Mahmudov, Abdulhamid Nurmonov, Hamid Ne'matov, Muhammadjon Qodirov singari tilshunoslar hamda Yoqub G'ulomov, Inomjon Rasulov, Belgivoy Mirzaaxmedov, Asqar G'ulomov, Boqijon To'xliyev, Bayit Turdiyev va boshqa bir qator metodist olimlar tomonidan yaratilgan darslik, qo'llanma va monografik ishlarda ushbu masalaning ma'lum bir jihatlari tadqiq etilgan.

BMIning maqsad va vazifalari. Bitiruv-malakaviy ishning asosiy maqsadi umumta'lim maktablari va akademik лицейларда ўқитиладиган ўзбек тили darslarida фонетика сатҳини замонавий педагогик технологиялар асосида ўқитиш йўллари ва усулларини тадқиқ этишдир. Ана шу мақсадни amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- fonetika va fonologiya bo'limlarni o'qitishning maqsad va vazifalarini aniqlab olish;
- umumta'lim maktablari va akademik litseylarda o'rganiladigan fonetika va fonologiya sathlarining mazmuni va mundarijasini yoritish;
- fonetika va fonologiya sathlarining ayrim mavzularini o'qitish usullarini yoritish;
- fonetika o'qitish orqali o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari haqida bahs yuritish;
- fonetika va fonologiya o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llarini yoritish;

- umumta'lim maktablari va akademik litseyda ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarni mustaqil izlanishga yo'naltiradigan amaliy ishlar sirasini tavsiya etish.

BMIning metodologik asosi va tadqiqot metodlari. Respublikamiz Prezidenti I.Karimovning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlarga munosabat va ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq qarashlari hamda dialektik falsafaning keng tarqalgan tadqiq usullari ishning metodologik asosini tashkil qiladi. Mavzuni yoritishda o'zbek tilshunosligi va ўзбек тили ўқитиш методикаси фанлари qo'lga kiritgan so'nggi yutuqlardan, nazariy fikrlardan ijodiy foydalanildi.

Mavzuning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Uzluksiz ta'lim tizimining umumta'lim maktabi va akademik litsey bosqichlarida o'rganiladigan fonetika va fonologiya sathlarini o'qitish usullari masalasi ilk bor ilmiy va metodik jihatdan tadqiq etildi. Tadqiq etishga jalb etilgan materiallardan uzluksiz ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili hamda akademik litseylarda o'qitiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslarida keng foydalanish mumkin. Bundan tashqari, ushbu masala bo'yicha uslubiy qo'llanmalar yaratishda hamda maxsus kurslar o'tishda material vazifasini o'taydi.

BMIning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 53 sahifani tashkil etadi.

I BOB. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA FONETIKA SATHINI O'QITISH MASALALARI

1.1. Fonetika o'qitishning maqsad va vazifalari

Ma'lumki, fonetika tilning tovushlar tizimini o'rganadigan bo'limi sanalib, uzluksiz ta'lim tizimining umummiy o'rta ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida izchil tarzda o'qitiladi. O'quvchilar tilning fonetika sathi bilan dastlab boshlang'ich sinflarda tanishtirilsa, keyinchalik ona tili izchil kursining 5-sinfida, akademik litseylarning 1-kursida o'rgatiladi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta'lim to'g'risida”gi Qonundan keyin respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish kun tartibiga qo'yildi. Bu islohot ona tili ta'limi oldiga ham muhim vazifalar qo'ydi. Birinchi galda tilning har bir sathini uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida qaysi me'yorda, ya'ni qancha o'qitish kerakligi masalasi hal etildi. Buni fonetika sathi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fonetika mavzulari bilan akademik litseylarda o'qitiladigan mavzular mundarijasini solishtirsak bunga amin bo'lamiz. Ya'ni uzluksiz ta'limning bu ikki bo'g'inida fonetika aynan bir xil o'qitilmaydi. Bunday bo'lishi mumkin ham emas. Agar shunday bo'lganda ona tili ta'limida o'qitishning uzviyligi va uzluksizligi prinsipi qo'pol ravishda buzilgan bo'lar edi.

Umumta'lim maktablarining 5-sinfida fonetika bo'limi bo'yicha o'quvchilarga quyidagi tushuncha va atamalarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan:

- fonetika va grafikaning o'zaro bog'liqligi;
- nutq tovushlari va harflar;
- unli va undosh tovushlar, ularning klassifikatsiyasi;
- nutq a'zolari va ularning nutq tovushlarini hosil qilishdagi o'rni;
- nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi;
- talaffuz va imlo me'yorlari;
- unli va undosh tovushlar imlosi;
- bo'g'in va urg'u.

Akademik litseylarning 1-kursida o‘qitiladigan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida esa fonetika bo‘limi fonologiya, grafika, orfoepiya, orfografiya singari bo‘limlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish ko‘zda tutilgan. Litsey o‘quvchilari ushbu bo‘limni o‘rganish jarayonida quyidagi masalalarga asosiy e‘tiborni qaratadilar va ularning o‘xshash hamda farqli jihatlarini o‘zlashtiradilar:

- til va nutq hodisalari;
- tovush, fonema va harf tushunchalari;
- fonetika va fonologiya sathlari;
- fonetika va orfografiyaning o‘zaro aloqasi;
- fonetik hodisalar: assimilyatsiya, dissimilyatsiya, jarangsizlanish va metoteza.

Ushbu tushuncha va hodisalar bo‘yicha akademik litsey darsligida yetarlicha nazariy ma’lumotlar berilgan. Ayni paytda bu nazariy ma’lumotlarga mos keluvchi amaliy, amaliy-ijodiy va sof ijodiy mashqlar, mustaqil topshiriqlar ham o‘z aksini topgan.

Ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitiladigan ona tili ta’limi oldiga og‘zaki va yozma nutqi shakllangan yoshlarni tarbiyalashdek muhim vazifa yuklangan ekan, tilning fonetika sathini o‘qitish ham ana shu maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilishi kerak. Umumta’lim maktablari va akademik litseylarda fonetika o‘qitishning bosh maqsadi ham ana shudir. Ushbu maqsad esa juda ko‘p omillar bilan bog‘liqdir.

O‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqining shakllanganlik darajasi o‘z fikrini so‘z va gaplar vositasida to‘g‘ri qura bilish, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish, ularni yozuvda to‘g‘ri ifodalay olish, tovush, so‘z va gap ohangiga rioya qilish kabilar bilan o‘lchanadi. Bu omillarning ko‘pchiligi esa tilning fonetika sathi orqali o‘quvchilar ongiga singdiriladi.

Uzluksiz ta’lim tizimining umumta’lim maktablari va akademik litsey bosqichlarida fonetika o‘qitishning oldiga quyidagi vazifalar yuklangan deyish mumkin:

- o‘quvchilarni adabiy talaffuz me‘yorlariga o‘rgatish, talaffuzi hamda yozilishi farq qiladigan so‘zlarning imlosini to‘g‘ri o‘zlashtirish;
- o‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish maqsadida ularni fonetikadan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar silsilasi bilan qurollantirish;
- o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri va unumli foydalana bilish malakalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarning badiiy o‘qish malakalarini shakllantirish;
- fonetikadan fikrni og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilish uchun zarur bo‘lgan ilmiy amaliy ma‘lumotlar berish;
- turli matnlar bilan ishlay bilish malakalarini shakllantirish, mustaqil matn yaratishga o‘rgatish;
- ayrim olingan so‘zlarni fonetik tahlil qilish malakalarini egallash;
- o‘quvchilarni turli lug‘atlar, ma‘lumotnomalar bilan ishlash malakalarini shakllantirish;
- taniqli tilshunoslar, faylasuf olimlar hayoti va ijodi, ularning til va tilshunoslik, vatan va vatanparvarlik haqidagi fikrlari bilan tanishtirish;
- qiziqarli grammatik o‘yinlar, topishmoqlar, rebus va krassvordlar bilan tanishtirish;
- o‘zbek tilining yangi imlo qoidalarini chuqur o‘zlashtirish;
- o‘qitishning zamonaviy usullarini qo‘llagan holda o‘quvchilarning mustaqil ijodiy izlanishini ta‘minlash, ularning fikrlash qobiliyatini shakllantirish kabilar.

1.2. Fonetika sathining mazmuni va mundarijasi

Umumta‘lim maktablarining 5-sinfida fonetika sathini o‘rganish uchun 47 soat ajratilgan. Ajratilgan vaqtning 36 soati bevosita fonetikaga aloqador mavzular bo‘lsa, qolgan 11 soati turli yozma ishlar, test variantlarini yechish hamda ularning tahliliga ajratilgan. Xullas, 5-sinfda fonetika bo‘limining mazmuni va mundarijasini quyidagi 1-jadval orqali ifodalash mumkin.

1-jadval

T/R	O'rganiladigan mavzular nomi	Dars raqami
1.	Tilshunoslik va uning bo'limlari	104-dars
2.	Fonetika va grafika	105-dars
3.	Nutq tovushi va harf	106-dars
4.	Unli tovushlar	107-dars
5.	Undosh tovushlar	108-dars
6.	Yozma ish va uning tahlili	109-110-darslar
7.	Nutq a'zolari	111-dars
8.	Lab tovushlari	112-dars
9.	Til tovushlari	113-dars
10.	Burun tovushlari	114-dars
11.	Bo'g'iz tovushi	115-dars
12.	Mustahkamlash darsi	116-dars
13.	Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi	117-dars
14.	O'zbek alifbosi	118-dars
15.	Nazorat diktanti	119-dars
16.	Talaffuz va imlo me'yorlari	120-dars
17.	Unlilar talaffuzi va imlosi	121-dars
18.	A va O unlilari talaffuzi va imlosi	122-dars
19.	Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi	123-dars
20.	O' unlisining talaffuzi va imlosi	124-dars
21.	E unlisining talaffuzi va imlosi	125-dars
22.	Mustahkamlash darsi	126-dars
23.	Yozma ish va uning tahlili	127-128-darslar
24.	Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi	129-dars
25.	G-K, Q-G' undoshlari talaffuzi va imlosi	130-dars
26.	Q, G' undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shimchalarning qo'shilishi va ularning imlosi	131-dars
27.	B, M undoshlaridan oldin kelgan N undoshining talaffuzi va imlosi	132-dars
28.	Ayrim harflar izohi. J harfi va tovushi	133-dars
29.	X x va H h harflari	134-dars
30.	F undoshining talaffuzi va imlosi	135-dars
31.	SH sh va CH ch harflar birikmalari hamda ularning vazifalari	136-dars
32.	Test	137-dars
33.	Yozma ish va uning tahlili	138-139-darslar
34.	Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi	140-dars
35.	Tutuq belgisining ishlatilishi	141-dars
36.	Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi	142-dars
37.	Mustahkamlash darsi	143-dars
38.	Nazorat diktanti	144-dars
39.	Bo'g'in va uning turlari	145-dars
40.	Bo'g'in ko'chirish qoidalari	146-dars
41.	Urg'u va uning turlari	147-dars
42.	Tovushlarning orttirilishi va tushib qolishi	148-dars
43.	Yozma ish va uning tahlili	149-150-darslar

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, uzluksiz ta‘lim tizimining umumta‘lim maktablari bosqichi o‘quvchilari uchun fonetika sathi 47 soatda o‘rganiladi. O‘quvchilar bu sathning asosiy tushunchalari bilan tanishibgina qolmay, ular o‘z nutqiy faoliyatlarida tovushlarning to‘g‘ri talaffuz etish, yozuvda esa to‘g‘ri ifodalay bilish malakalarini ham egallaydilar.

Uzluksiz ta‘limning akademik litsey bosqichida o‘rganiladigan fonetika bo‘limining mazmuni va mundarijasi quyidagicha (2-jadvalga qarang):

2-jadval

T/R	O‘rganiladigan mavzular nomi	Ajratilgan soat
1.	5-paragraf. O‘zbek tilining tovush tizimi (fonetikasi)	
2	5.1. Nutqiy faoliyat	2 soat
3	5.2. Nutq tovushlarining uch tomoni	2 soat
4	5.3. Tovushlarning farqlovchi va birlashtiruvchi belgilari	2 soat
5	5.4. Tovush va fonema	2 soat
6	5.5. Fonemalar tasnifi. Unlilar tasnifi	2 soat
7	5.6. Undoshlar tasnifi	2 soat
8	5.7. Fonema va harf	2 soat
9	6-paragraf. O‘zbek yozuvi tarixi	2 soat
10	7-paragraf. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni	2 soat
11	8-paragraf. Yangi alifboda unlilarning ifodalanishi	2 soat
12	9-paragraf. Yangi alifboda undoshlarning ifodalanishi	2 soat
13	10-paragraf. Undoshlarning talaffuzi va imlosi	2 soat
14	11-paragraf. Assimilyatsiya, dissemilyatsiya, jarangsizlanish, metoteza va boshqa fonetik hodisalar	2 soat
15	12-paragraf. So‘z boshi, so‘z o‘rtasi va oxirida undoshlarning ishlatilishi sabablari, imlosi	2 soat
16	13-paragraf. Orfografiya	2 soat
17	14-paragraf. Bo‘g‘in va uning turlari	2 soat
18	15-paragraf. Ohang va uning nutqdagi ahamiyati	2 soat
19	16-paragraf. Urg‘u va uning nutqdagi ahamiyati	2 soat

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, akademik litsey o‘quvchilari fonetika sathi o‘quv materiallarini fonologiya bilan birgalikda o‘rganadilar. Uzluksiz ta‘limning keyingi bosqichlari sanalgan oliy ta‘limning bakalavr va magistr yo‘nalishi talabalari esa bu sathlarni alohida-alohida o‘rganadilar. Bu hol ham fonetika va fonologiya sathlarini o‘qitishda uzviylik va uzliksizlikka amal qilinganidan dalolat beradi.

Akademik litseyda fonetika bo'yicha beriladigan bilimlarning katta qismi tamoman yangi. Litsey talabalari bu kurs davomida nutq va uning bo'laklarga bo'linishi, nutqning eng kichik birligi fonema deb atalishi, nutq tovushlarining akustik, fiziologik (talaffuz) va vazifaviy tomonlari, fonetika va fonologiyaning o'rganish obyektlari, tovush bilan fonemaning, fonema bilan harfning farqi, unli va undosh fonemalarni tasnif etish tamoyillari, o'zbek yozuvi tarixi, O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi Qonuni, turli fonetik hodisalar singari yangi bilimlar bilan tanishadilar. Ularni o'zlashtirib, amaliy faoliyatlarida keng qo'llashga intiladilar. Ko'rinib turibdiki, uzluksiz ta'limning ushbu bo'g'inida talabalarning fonetika bo'yicha maktabda olgan bilimlari har jihatdan chuqurlashtiriladi va yangi bilimlar sirasi bilan boyitiladi.

1.3. Fonetika sathini o'qitish usullari

Tilshunoslikning fonetika bo'limi inson nutq tovushlarini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganadi. Umumta'lim maktablarida fonetika o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalar keng qo'llanib kelinmoqda.

5-sinfda fonetika bo'limi quyidagi mavzularni o'z ichiga qamarab oladi: Nutq tovushlari va harf. Unli tovushlar. Undosh tovushlar. Nutq a'zolari. Lab tovushlari. Til tovushlari. Burun tovushlari. Bo'g'iz tovushi. Nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasi. O'zbek alifbosi. Talaffuz va imlo me'yorlari. Unlilar talaffuzi va imlosi. A va O unlilari talaffuzi va imlosi. Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi. O' unlisining talaffuzi va imlosi. E unlisining talaffuzi va imlosi. Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. G – K, Q – G' undoshlari talaffuzi va imlosi. Q, G' undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shimchalarning qo'shilishi va ularning imlosi. Ayrim harflar izohi: j harfi va tovushi. X va H harflari. F undoshining talaffuzi va imlosi. SH va CH harflar birikmalari hamda ularning vazifalari. Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi. Tutuq belgisining ishlatilishi. Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi. Bo'g'in va uning turlari. Bo'g'in

ko'chirish qoidalari. Urg'u va uning turlari. Tovushlarning orttirilishi va tushib qolishi.

Fonetika bo'limi mavzularini o'rganishdan oldin o'quvchilarga tilshunoslikning bo'limlari va ularda o'rganiladigan masalalar haqida ma'lumot berish ko'zda tutilgan. Bu mavzuda o'quvchilar fonetika, grafika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis singari tilshunoslik fanining bo'limlari haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ladilar. Keyingi mashg'ulotda fonetika va grafika mavzusi o'rganiladi. O'quvchilar fonetika va grafika xususida ma'lum tasavvurga ega bo'lgach, ushbu bo'limning ichki masalalarini o'rganish boshlanadi. Dastlab tovush va harflarni farqlash bo'yicha o'quvchilar bir qator amaliy – ijodiy ishlarni bajaradilar. Bu amaliy-ijodiy ishlar sirasi quyidagicha:

- gaplarni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga bo'lish;
- ostma–ust berilgan harflardan so'z keltirib chiqarish, hosil qilingan so'zlar yordamida gap tuzish;

- hazil–topishmoqlar mag'zini chaqish, ya'ni nima xususida so'z yuritilayotganini topish;

- ma'lum harflari tushirib qoldirilgan krossvordlarni echish;

“*Nutq tovushlari va harf*” mavzusida berilgan 342-mashqda o'quvchilar hazil – topishmoqning javobini topish bo'yicha mustaqil faoliyat yuritadilar.

Quyidagi topishmoqlar berilgan:

1. *Kel – kel desam kelmaydi, kelma desam keladi. (javobi – m tovushi).*

2. *Olamda-yu odamda bitta, elatda yo'q, odoblida ikkita. U nima? (javobi – o unlisi).*

3. *Unli bilan boshlanadigan oylar ko'pmi, undosh bilan boshlanadigan oylarmi? (undosh bilan boshlanadigan oylar 7 ta, unli bilan boshlanadigan oylar – 5 ta).*

Ko'rinib turibdiki, topishmoqlar o'quvchilarni fikrlashga chorlaydi. O'quvchilar topishmoqning javoblarini turlicha talqin etishlari ham mumkin. Bunday paytda qizg'in bahslar tug'ilishi tabiiy. Topishmoqlar javobi topib bo'lingach, o'qituvchi shunga o'xshash topishmoqlar topishni vazifa qilib

topshirishi ham mumkin.

“Unli tovushlar” mavzusi o’tilayotganda:


- bor, ber, bir, bur, bo’r singari so’zlarning o’zaro farqini aniqlash, ularda ma’no farqlashga xizmat qilayotgan tovushlarni topish;

- berilgan *a, o, e, o’, u, i, n, q, p, t* tovushlarini talaffuz etib ko’rish, tovushlarning hosil bo’lishidagi farqni izohlash singari qator amaliy ishlar ustida o’quvchilar faoliyat yuritishlari mumkin.

Mavzuni musobaqa shaklida o’rganish ham mumkin. O’quvchilar uch guruhga bo’linib, o’zaro bellashish musobaqasini tashkil etadilar. Birinchi guruh unlilarning so’z boshida, ikkinchi guruh so’z o’rtasida, uchinchi guruh esa so’z oxirida kelishiga misollar topadilar. Qaysi guruh ko’p so’z topsa g’olib bo’ladi.

Fonetika mavzularini o’rganishda turli boshqotirmalardan ham keng foydalanish mumkin. Masalan, “Undosh tovushlar” mavzusi o’rganilayotganda “k” tovushi bilan boshlanib, “k” tovushi bilan tugaydigan so’zlarni katakchalarga yozib chiqish talab etiladi. Buning uchun chap tomonda so’zlar yozilgan bo’lib, o’ngda krossvord chizilgan.

1. Zarur, darkor.
2. Teshik, o’yiqlik joy.
3. Yovvoyi hayvon.
4. Tanlov, musobaqa.



Nutq a’zolari haqidagi dastlabki ma’lumot 5–sinfda beriladi. O’quvchilar nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan a’zolari mustaqil izlanishlar orqali topishlari uchun bir qator amaliy ishlarni bajarish jalb etiladi. Ular quyidagilar:

- berilgan tovushlarni (*v, p, t, h, u, o*) talaffuz etish orqali bu tovushlar talaffuzida qatnashayotgan nutq organlarini aniqlash;

- og'iz bo'shlig'idagi nutq organlarini sanash, nutq tovushlarining hosil bo'lishdagi o'rnini aniqlash;

- talaffuzida til ishtirok etadigan tovushlarni aniqlash;

- talaffuzida lab ishtirok etadigan tovushlarni aniqlash;

- talaffuzida burun ishtirok etadigan tovushlarni aniqlash;

- darslikdagi rasm hamda tabiiy kuzatish orqali nutq a'zolari joylashgan o'rinlarni aniqlash.

O'quvchilar nutq a'zolari haqida muxtasar bilimga ega bo'lganlaridan so'ng "*Lab tovushlari*", "*Til tovushlari*", "*Burun tovushlari*", "*Bo'g'iz tovushi*" singari mavzular o'rganiladi. Bu mavzular o'rganilayotganda ham qator amaliy ijodiy ishlarni bajarish ko'zda tutiladi.

Fonetikani o'qitishda eng muhim masalalardan biri imlo masalasidir. Unli tovushlar o'rganilayotganda ham, undosh tovushlar o'rganilayotganda ham asosiy e'tibor imloga qaratilmog'i darkor.

5-sinf darsligida "*Talaffuz va imlo*" degan alohida mavzu bor. O'quvchilar mavzu doirasida berilgan mashqlar ustida ishlash jarayonida so'zlarning adabiy tildagi shakli bilan shevadagi shaklini farqlashni o'rganadi. Talaffuzi bilan yozilishi farq qiladigan so'zlar ustidagi amaliy ishlar imloni to'g'ri o'zlashtirishga yordam beradi.

"*Unlilar talaffuzi va imlosi*" mavzusi doirasida *u* va *i*, *a* va *o* bilan farqlanadigan so'zlar ustida ishlash; qator kelgan *oa*, *ao*, *aa* unlilarining talaffuzi va imlosini o'rganish; lug'atlardan shunday unlilar qatnashgan so'zlarni topib, talaffuz etib ko'rish; tarkibida *o* unlisi kelgan so'zlar topib talaffuz etish va xususiyatlarini izohlash kabi bir qator amaliy ishlarni bajarishga to'g'ri keladi.

"*Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi*" mavzusi doirasida *g-k*, *q-g* undoshlarining talaffuzi va imlosi; *b-m* undoshlaridan oldin kelgan *n* undoshining talaffuzi va imlosi; *j*, *h* va *x*, *f* harflarining imlosi; qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi; qator kelgan undoshlarning talaffuzi va imlosi singari masalalar xususida

bahs yuritiladi. Unli va undoshlarning talaffuzi hamda imlosini o'rganishdan asosiy maqsad so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llay olishga erishishdir. Shuning uchun ham ushbu mavzular o'rganilayotganda og'zaki va yozma hikoya tuzish, matn yaratish, rasmdagi voqelikni tasvirlab berish singari mustaqil ish usullaridan keng foydalanishga to'g'ri keladi.

Ona tilini o'qitishdan kelib chiqadigan bosh maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish ekan, til sathlarini o'qitishni o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qildirish asosiy vazifalardan sanaladi. Fonetikada tilning tovush tizimi o'rganilsa-da, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish uchun katta imkoniyatlar bor. Fonetika mavzulari doirasida bajariladigan turli amaliy-ijodiy ishlar o'quvchilarning so'zga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun imkon yaratadi.

A.G'ulomov va M.Qodirovlarning o'quv qo'llanmasida bu imkoniyatlarning ayrimlari qayd etilgan. Ular o'quvchilarning tovushdosh so'zlar ustida; ma'nodosh, uyadosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlar ustida; gap va matn ustida olib boriladigan amaliy ishlari bevosita fonetika bilan bog'lanishi, o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga ko'maklashishini yozadilar. Darhaqiqat, bir unli yoki undosh bilan farqlanadigan so'zlar qatorini yaratish, ular ishtirokida matn tuzatish, matndagi shu so'zlarning uyadoshlari yoki ma'nodoshlarini topish singari ishlar o'quvchilarda nutqiy malakalarning shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Akademik litseylar uchun chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida fonetika o'qitishga bag'ishlangan dastlabki darsda umumta'lim maktablarida o'zlashtirilgan bilimlarni xotiraga qayta tiklash, shu asosda berilgan ilmiy-ma'rifiy matn ustidagi amaliy ishni davom ettirish ko'zda tutilgan. Maktabda o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash uchun ikki soat ajratilgan bo'lib, o'quvchilar o'qituvchi tomondan berilgan tezkor savollarga javob beradilar, fonetikaning asosiy tushunchalarini qayta takrorlaydilar. Takrorlash jarayoni qisqa o'tkaziladi. Asosiy e'tibor "Istiqlolim - istiqbolim" deb nomlangan ilmiy-ma'rifiy matnga qaratiladi. O'quvchilar matn bilan tanishar ekanlar respublikamizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi qanday tarixiy, siyosiy, ilmiy ahamiyat kasb etganini bilib oladilar.

Mustaqillik sharofati bilan ona tilimiz va milliy qadriyatlarimizning rivoji, o‘zbek davlatchiligining takomili keng istiqbol yo‘llari ochib berilganini anglab yetadilar.

Birinci mashg‘ulotda hadisdan berilgan namunalar, tez aytishlar, ilmiy-ma’rifiy va publitsistik matnlar ustida o‘quvchilarning mustaqil ish olib borishi ko‘zda tutilgan. O‘quvchilar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan matn ustida ishlar ekanlar matn tarkibidagi so‘zlar ichidan unli va undosh tovushlarning talaffuzi va imlo xususiyatlari haqida bahs yuritadilar.

Ishimizning ushbu qismida akademik litsey darsligida berilgan ayrim mavzularni o‘rganish usullarini ko‘rib chiqamiz.

“O‘zbek tilining tovush tizimi (fonetikasi)” mavzusini o‘rganish nutqning ma’lum bo‘laklarga bo‘linishi haqidagi amaliy va nazariy ishlarni bajarish bilan boshlanadi. O‘quvchilar “O‘zbekiston - jannatmakon o‘lka” gapini kichik bo‘laklarga ajratib chiqadilar. Gapni kichik bo‘laklarga ajratish turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- gapni so‘zlarga (O‘zbekiston, jannatmakon, o‘lka), so‘zlarni bo‘g‘inlarga (O‘z-be-kis-ton jan-nat-ma-kon o‘l-ka), bo‘g‘inlarni harflarga (O‘-z-b-e-k-i-s-t-o-n j-a-n-n-a-t-m-a-k-o-n o‘-l-k-a) ajratish orqali;
- buni quyidagi jadval asosida bajarish ham mumkin:

3-jadval

Gaplar	So‘zlar va улаp soni	Bo‘g‘inlar va улаp soni	Харфлар soni
O‘zbekiston - jannatmakon o‘lka	O‘zbekiston, jannatmakon, o‘lka. 3 ta so‘z	O‘z-be-kis-ton jan-nat-ma-kon o‘l-ka. 10 ta bo‘g‘in	O‘-z-b-ye-k-i-s-t-o-n j-a-n-n-a-t-m-a-k-o-n o‘-l-k-a. 25 ta harf

O‘quvchilarning o‘zlari ham shu kabi bir-ikki gapni tanlab ikki usulda tahlil qilib ko‘radilar. Shundan so‘ng tovushning ta’rifi chiqariladi: *“Bo‘linishning oxirgi nuqtasi bo‘lgan, boshqa mayda bo‘laklarga bo‘lish mumkin bo‘lmagan nutq bo‘lagi (akustik-artikulyatsion birlik) tovush hisoblanadi va u bilan bog‘liq hodisalar tilshunoslikning fonetika bo‘limida o‘rganiladi”*².

² Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2001. -43-bet.

O‘quvchilarning bunday tahlil malakalarini yanada shakllantirish maqsadida bir qator gaplarni tahlil etish tavsiya etiladi. Tahlil uchun gaplar tanlanayotganda NG harf birikmasi va N va G harflari, shuningdek, SH va CH harf birikmalari qatnashgan gaplarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Chunki ko‘pgina o‘quvchilar bunday tovushlar qatnashgan so‘zlarni tarkibiy qismlarga ajratishda ma’lum qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning imlosini yaxshi o‘zlashtirmaganlik shunday qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu boisdan o‘quvchilarning mustaqil ishlari uchun quyidagi tartibdagi topshiriqlarni tavsiya etamiz.

1-topshiriq 1-ish. Berilgan gaplarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.

1. Toshkent O‘zbekistonning eng chiroyli va qadimiy shahri. 2. Ko‘chalar chetida chaman-chaman bo‘lib ochilgan gullar kishining bahri-dilini ochib yuboradi. 3. Jamiyat o‘zida yo‘q shod Yangi oy ham ketmay qoshingdan. Etak-etak olib koinot Yulduzlarni sochar boshingdan (E.Vohidov).

Namuna: Tosh-kent O‘z-be-kis-ton-ning...

2-ish. Har bir bo‘g‘inni tovush (harf) lariga ajrating.

Namuna: T-o-sh-k-e-n-t...

3-ish. Toshkent, O‘zbekiston, yangi, ko‘cha, gul, oy, yulduz so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna. Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti...

4-ish. Toshkent va Samarqand so‘zlari tarkibidagi harflar asosida yangi so‘zlar hosil qiling.

Namuna: Toshkent - tosh, kent, osh, shosh, ton, kesh, shok, ket, tek, tesh kabi.

5-ish. Hosil qilgan yangi so‘zlardan otlarni ajrating.

Namuna: tosh, kent, osh ...

6-ish. Kent, kesh, shosh, shok singari so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolarini sharhlang.

Namuna: Kent – qishloq, katta qishloq, shahar ma‘nolarini ifodalaydi. Hozirgi kunda joy nomlari tarkibida uchraydi. Toshkent, Beshkent, G‘azalkent kabi.

“Nutqiy faoliyat” mavzusini o‘rganish usullari. Mavzuning nazariy qismida o‘qituvchi o‘quvchilarga mavzuning mohiyatini ixcham shaklda, ilmiy asosda tushintirishga harakat qiladi. Mavzuning amaliy qismida esa savol va topshiriqlar ustida ish olib boriladi. Mavzu bo‘yicha o‘qituvchining ma‘ruzasi quyidagi reja asosida olib boriladi:

Reja:

1. Olamni bilishda sezgi a‘zolarining o‘rni.
2. Inson sezgi a‘zolari bilan hayvonlar sezgi organlarining farqi.
3. Kommunikativ aloqada so‘zlovchi va tinglovchi.
4. Nutqiy faoliyat.
5. Nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshishi.
6. Til va nutq tushunchalarining ta‘rifi.
7. Fonologik sath birliklari.

Biz hamisha o‘zimizni qurshab turgan olamni bilishga, uni anglashga harakat qilamiz. Olamni bilishda markaziy asab sistemasi yordam beradi. Zero insonning barcha faoliyati ana shu sistema orqali boshqariladi. Kuzatishdagi narsa, hodisa haqidagi axborotlar markaziy asab sistemasiga sezgi organlari (tana, ta‘m-maza, ko‘rish, eshitish, hid bilish kabi sezgi a‘zolari) yordamida uzatiladi.

Bu sezgi a‘zolari barcha jonzotlarda ham mavjud, lekin inson ongli jonzot sifatida markaziy asab sistemasiga uzatilgan axborotlarni nutq sifatida namayon etish qobiliyatiga ega. Akademik Pavlov bilishning birinchi vositalarini birinchi signal sistemasi nomlagan bo‘lsa, bilishning ikkinchi usulini ikkinchi signal sistemasi deb nomlagan edi. Ulug‘ bobomiz Alisher Navoiy hazratlari ham insonning ana shu qobiliyatini ta‘kidlab, insonni barcha maxluqotlarning zoti sharifi deb ta‘riflagan edi.

Ma‘lumki, jamiyat a‘zolari bir-birlari bilan aloqada bo‘ladilar. Sezgi a‘zolari yordamida hosil qilingan bilim (tushuncha) boshqalarga tovush to‘lqinlari (yozuvda harflar) orqali yetkazishga harakat qiladilar. Axborot uzatuvchi so‘zlovchi, eshituvchi esa tinglovchi deyiladi. Tinglovchi olamdagi narsa va

hodisaning umulashgan obrazini soʻzlovchi uzatgan tovush signallarini eshitish sezgi aʼzosi yordamida markaziy asab sistemasida tiklaydi.

Soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi ana shu axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyati nutqiy faoliyat deyiladi.

Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa sistemasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Ana shuni eʼtiborga olgan mashhur tilshunos olim Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshishini taʼkidlaydi va tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlaydi. Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi.

Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi maʼlum jamiyat aʼzolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi – til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namayon boʻlishi, voqelanishi – nutqdir.

Til va nutq umumiylik-xususiylik, imkoniyat-voqelik, mohiyat-hodisa zidlanishini oʻzida namayon etib, bir-biriga zidlanadi va bunday zidlanish har bir til sathlariga xos birliklarning nomlanishida ham oʻz ifodasini topadi.

Tilning fonologik (fonetik) sathining birligi fonema boʻlsa, fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan koʻrinishi fon (alla fon) yoki tovush hisoblanadi³.

Maʼruzadan soʻng oʻquvchilar mavzuni qanday oʻzlashtirganligini sinab koʻrish uchun quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

1. Inson olamni qanday biladi?
2. Birinchi va ikkinchi signal sistemalari deganda nimani tushunasiz?
3. Nutqiy faoliyat nima? U qanday amalga oshadi?
4. Tilni nima uchun ijtimoiy hodisa hisoblaymiz?

Mavzuning amaliy qismi uchun beshta mashq berilgan boʻlib, ularning asosiy qismi oʻquvchilarni qiziqtiradigan, musobaqaga chorlaydigan topshiriqlar asosida tuzilgan. Bu mashqlarda oʻquvchilar oʻrni almashtirib qoʻyilgan harflarni oʻz oʻrniga topib qoʻyish va shu asosda har qanday harf ketma-ketligi maʼno anglatavermasligini bilib olish; boʻgʻinlar oʻrni almashtirib qoʻyilgan harflarni joy-

³ Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Koʻrsatilgan manba, 41-45-betlar.

joyiga qo‘yib, yashiringan topishmoqni topib o‘qish; berilgan tovushlar ishtirokida turli gaplar tuzish; unli va undosh tovushlar ishtirokida so‘zlar tuzish singari amaliy-ijodiy ishlar bajariladi. Quyida ularning ayrimlarini ko‘rib o‘tamiz.

1-topshiriq. Berilgan so‘zlarning bo‘rinlarini tartibli joylashtiring va topishmoqning javobini toping.

Sichake izdazat, zinukdu matxizda.

2-topshiriq. Quyida berilgan harf (tovush) lar ishtirokida so‘zlar qatorini hosil qiling: *m, r, l, n, ng, e, y, a, o, u, o‘, i.*

Namuna:

1. Men, ming, mung, mol, mo‘l, mis...

2. Rost, rosh, rol, rok, rom, raqam, ro‘mol...

3. Lab, lang, lak, lim, lozim, loyiq...

3-topshiriq. 1-ish. ...it, ...ut, ...ot oldiga bir undosh qo‘shib yangi so‘zlar hosil qiling.

Namuna: bit, dit, tit, zit, yit, kit, sit ...

2-ish. Hosil bo‘lgan so‘zlarning ma‘nodoshi va uyadoshlarini toping. Ular ma‘nosining o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini sharhlashga harakat qiling.

Namuna: bit – qon so‘rib yashovchi parazit hasharot ...

3-ish. So‘zlarga yasovchi qo‘shimchalar qo‘shib yangi so‘zlar hosil qiling.

Namuna: bit-liq, dit-li, but-la, sut-li, tot-li, qot-ma ...

4-ish. Hosil bo‘lgan yasama so‘zlar ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

Namuna: ditli o‘quvchi, sutli ovqat, totli qaymo, qotma ayol ...

4-topshiriq. Fonetikaga oid qiziqarli grammatik o‘yinni bajarish natijasida hosil bo‘ladigan mashhur maqolni toping. (*Javobi:* oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur)

4-jadval

κ	<i>m</i>	ð	<i>a</i>	<i>л</i>	<i>ũ</i>	<i>y</i>	<i>ḃ</i>	<i>ɔ</i>	<i>н</i>	ð	<i>o</i>
<i>p</i>	<i>a</i>	<i>a</i>	<i>ḃ</i>	<i>p</i>	<i>o</i>	<i>u</i>	<i>p</i>	<i>л</i>	<i>ḃ</i>	<i>o</i>	<i>ÿ</i>
κ	<i>ũ</i>	<i>ÿ</i>	<i>m</i>	<i>з</i>	<i>a</i>	<i>ÿ</i>	<i>u</i>	<i>a</i>	<i>u</i>	<i>u</i>	<i>p</i>
<i>o</i>	<i>a</i>	<i>p</i>	<i>o</i>	<i>p</i>	<i>з</i>	<i>ɛ</i>	<i>н</i>	<i>ḃ</i>	<i>л</i>	<i>y</i>	

“*Nutq tovushlarining uch tomoni*” mavzusini o‘rganish yo‘llari. Yuqorida ko‘rsatilganidek, ushbu mavzu ham nazariy va amaliy qismlardan iborat. Nazariy qismda o‘quvchilarga fizik tovushlar va nutq tovushlarining farqi, nutq tovushlarining hosil bo‘lish jarayonlari, bunda nutq organlarining o‘rni singari masalalar haqida ma’lumotlar beriladi. Bunday ma’lumotlar berilayotganda asosiy e’tibor nutq tovushlarining uch tomoniga qaratiladi.

Nutq tovushlarining quyidagi uch tomoni mavjud:

1. Nutq tovushlari insonning nutq a’zolari harakati natijasida maydonga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni *talaffuz* (fiziologik) belgisi sanaladi. Tovushlarning bu belgisi fiziologiya fani bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi. Nutq a’zolariga o‘pka, bo‘g‘iz, tovush paychalari, og‘iz bo‘shlig‘i, tanglay, til, lab, burun, tish kabilar kiradi.

2. Har qanday tovush havoning tebranishi natijasida paydo bo‘ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma’lum sifat belgisiga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr belgilariga ega bo‘ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomon deyiladi va u fizika fani bilan aloqada o‘rganiladi.

3. Nutq tovushlari ma’lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishidan ma’lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma’noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomondan shakllantirishi va ma’nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, *sol* bilan *shol* so‘zlari birinchi tovushlari bilan, *sot* bilan *soch* so‘zlari oxirgi tovushlari bilan, *sot* bilan *sut* so‘zlari o‘rtasidagi tovushlari bilan farqlanadi.

Tovushlarning bunday belgilari ularning vazifaviy belgisi sanalda va u faqat inson tovushlarigagina xos belgi hisoblanadi.

Shunday qilib, nutq tovushlarining uch tomoni mavjud:

- a) akustik;
- b) talaffuz;
- v) vazifaviy.

Nutq tovushlari tasnif qilinayotganda ana shu uch tomon e'tiborga olinadi. Mavzuning amaliy qismida o'quvchilar taniqli tilshunos olim Ayub G'ulomov haqidagi ilmiy matn, shuningdek, Abdurauf Fitrat, G'aybulla as-Salomlar qalamiga mansub ommaviy matnlar, har xil gaplardan tuzilgan aralash matnlar ustida mustaqil ishlaydilar. Ular matnlar bilan tanishayotganda ularning mazmuniga e'tibor berib qolmasdan, o'rganilgan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llashga ham harakat qiladilar. Masalan, Ayub G'ulomov haqidagi matnda o'quvchilar nutq tovushlarining o'ziga xos tomonlari haqida fikr yuritadilar. Keyingi matnlarda esa tovushlarning akustik, talaffuz va vazifaviy tomonlariga e'tibor beradilar. Ayrim so'zlar tarkibidagi tovushlar o'rni almashtirib qo'llash orqali boshqa lug'aviy mazmun ifodalovchi so'zlar hosil qiladilar.

“Tovushlarning farqlovchi va birlashtiruvchi belgilari” mavzusi o'rganilayotganda nutq tovushlarining bir qancha akustik va artikulyatsion belgilarga ega ekanligi haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi. Chunki bu belgilar fonetika sathi uchun muhim sanaladi. Fonologiya uchun esa faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilargina ahamiyatlidir.

Ma'lumki, bizning bilish faoliyatimizning asosini qiyoslash tashkil etadi. Bilish jarayonida yangi bilayotgan narsamizni oldin bilgan narsaga qiyoslaymiz va ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni topishga harakat qilamiz. Shuning uchun ham bilish faoliyatida zidlashlarning ahamiyati katta.

Misol, o'zbek xalqi egizak tug'ilgan bolalarga Hasan va Husan deya ism qo'yishadi. Aytaylik ularning birida xol bor. Bu ularni farqlovchi asosiy belgisidir, boshqa belgilar esa aynan o'xshashdir. Ularning ismlarini bildiruvchi tovush birliklariga e'tibor bersak, farqlovchi belgi “u” va “a” unlilari ekani aniq bo'ladi. Qolgan tovushlar esa aynan o'xshashdir.

Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qilayotgan belgilar *farqlovchi belgilar*, ularning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar esa *birlashtiruvchi belgilar* sanaladi.

O‘quvchilar bu hodisani quyidagi tovushlar tahlili asosida yanada chuqurroq o‘zlashtiradilar. “B” va “P” tovushlarini olamiz. Birinchi tovush lab, portlovchi, jarangli belgilariga ega; ikkinchisi lab, portlovchi, jarangsiz belgilariga ega. Ko‘rinib turibdiki, dastlabki ikki belgi har ikkisida ham aynan takrorlangan, uchinchi belgi (jarangli-jarangsiz) esa bir-biridan farqlanadi. Demak, birinchi va ikkinchi belgilar birlashtiruvchi belgilar, uchinchi esa farqlovchi belgi sanaladi.

Mavzuning amaliy qismida o‘quvchilar quyidagi amaliy ishlarni bajaradilar.

1-topshiriq. Topishmoq-gaplarni o‘qing, ularning javobini toping.

1.Yettida bor, yettovda yo‘q.

2. Shaklidir uch kunlik oy,

“Oy”ga qo‘shsak bo‘lar soy.

3. “Arra”da ikkita bor,

“Yalla”da ham shuncha bor.

Yana qaysi so‘zlarda

Shu holat bo‘lar takror?

1-ish. Topishmoqlarning javobini topishda sizga nima yordam berganini izohlang.

2-ish. *Yetti-ettov, arra-karra, alla-yalla* so‘zlari tarkibidagi birlashtiruvchi va farqlovchi tovushlarni sharhlang.

3-ish. So‘zlar qatorini farqlovchi undosh harflar qo‘yib davom ettiring.

a) arra-karra-darra...

b) alla-kalla-salla...

v) kun-tun-run...

4-ish. 3-ishda hosil qilgan so‘zlaringiz asosida bog‘lanishli matn tuzing.

“Tovush va fonema” mavzusini o‘rganish usullari. Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalari farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xususiylik va umumiylik munosabatining aks etishidir. Biz bevosita kuzatishda xususiyliklarni sezgi a‘zolarimiz bilan his qilamiz. Bir xususiylikni boshqa xususiylik bilan solishtiramiz. Solishtirilayotgan xususiyliklar o‘rtasidagi qanday o‘xshash va farqli tomonlar mavjud ekanligini aniqlaymiz.

O‘xshash jihatlari asosida har qaysi xususiylikni ma’lum umumiylikka birlashtiramiz.

Masalan, auditoriyadagi o‘ttiz o‘quvchining hammasida so‘mka bor. Ular rangi, hajmi, materiali, shakli jihatidan bir-biridan farq qiladi. Demak, nechta so‘mka bo‘lsa, shuncha xususiyliklar bor. Lekin ana shu xususiyliklarning barchasida takrorlanadigan bir umumiy belgi bor. Bu o‘quv qurollarini solish uchun mo‘ljallangan, ko‘tarib yuriladigan, charm yoki boshqa materialdan tikilgan anjom (so‘mka)dir.

Nutq tovushlarida ham ana shunday xususiyatlarni kuzatamiz. Masalan, “i” tovushini olaylik. Bu unli tovush so‘z takibida o‘ziga yondosh tovushlar ta’sirida yoki shaxsning o‘ziga xos talaffuzi, yoki sheva ta’sirida turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Shuning uchun ham *tushib, bilan, tilim, sira, qiliq, qiziq* so‘zlaridagi *i* unlisining talaffuzi turlicha: birinchi so‘za “u”, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi so‘zlarda bilinar-bilinmas, beshinchi va oltinchi so‘zlarda esa “o”ga yaqin talaffuz etiladi. Ko‘rinadiki, “i” unlisining nutq jarayonidagi ko‘rinishlari xilma-xil. Lekin ularning hammasida takrorlanib keluvchi umumiy jihatlar bor, ya’ni “i” unlisining torlik, lablanmaganlik belgisi. Shu belgisi asosida uni a, e ga va o‘, u ga zid qo‘ya olamiz.

Tahlillardan shunday xulosa chiqrish mumkin. Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog‘imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo‘laklarga bo‘linmaydigan nutq parchasi *tovush* sanaladi.

Bevosita kuzatishda bir nechta tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so‘z va uning ma’noli birliklarini shakllantirish va farqlash vazifasini bajarishiga xoslangan, ketma-ketlik jihatdan boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik til birligi *fonemadir*.

Masalan, *tol – tom* so‘zlarini “l” va “m” fonemalari farqlaydi. Ular alohida-alohida fonemalardir. *Tot – tut* zidligida esa “o” va “u”, *bot – tot* zidligida esa “b” va “t” ma’noni farqlash uchun xizmat qiladi. Shu bois ular ham mustaqil fonemalardir.

Ko‘rinadiki, bir fonema bir necha tovushlar orqali ro‘yobga chiqadi. Shuning uchun fonemalarnigina sanash mumkin. Ular cheksiz ko‘rinishlarga ega. Bu esa tovushlar miqdorining cheksiz ekanligini ko‘rsatadi. Fonemalar ikki va undan ortiq ma‘noli birliklarni bir-biriga zidlash orqali aniqlanadi.

Mavzu bo‘yicha nazariy ma‘lumotlarni mustahkamlash uchun darsning amaliy qismida o‘quvchilarning topqirligi va til sezgirligini oshirishga qaratilgan mashqlar, topshiriqlar bajarish ko‘zda tutilgan. Ularning ayrimlarini quyida ko‘rib o‘tamiz.

1-topshiriq. Tosh-tush, tosh-tol; bot-tot, bot-but; qol-qil, qol-qot juftliklarida so‘z ma‘nolarini farqlashda qatnashayotgan fonemalarni aniqlang va sharhlang.

Namuna: tosh-tush so‘zlarida ma‘no farqlashda ishtirok etayotgan fonemalar “o” va “u” fonemalaridir. *Tosh-tol* so‘zlarida esa “sh” va “l” undosh fonemalari bu vazifani bajargan.

2-topshiriq. Jadvalda berilgan so‘zlarni namuna asosida tahlil eting.

5-jadval

So‘zlar	Tovush soni	Harf soni	Unli tovush	Jarangli undosh	Jarangsiz undosh	Bo‘fin soni	Urg‘uli bo‘g‘in
paxtakor	8	8	2	1	4	3	-kor
ma‘rifat							
saodat							
ta‘rif							
mutaxassis							
muqaddas							
yozuv	5	5	2	3		2	-zuv

3-topshiriq. 1-ish. ...it, ...ut, ...ot oldiga bir undosh qo‘shib yangi so‘zlar hosil qiling.

Namuna: bit, dit, tit, zit, yit, kit, sit ...

2-ish. Hosil bo‘lgan so‘zlarning ma‘nodoshi va uyadoshlarini toping. Ular ma‘nosining o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini sharhlashga harakat qiling.

Namuna: bit – qon so‘rib yashovchi parazit hasharot ...

3-ish. So'zlarga yasovchi qo'shimchalar qo'shib yangi so'zlar hosil qiling.

Namuna: *bit-liq, dit-li, but-la, sut-li, tot-li, qot-ma ...*

4-ish. Hosil bo'lgan yasama so'zlar ishtirokida so'z birikmalari tuzing.

Namuna: *ditli o'quvchi, sutli ovqat, totli qaymo, qotma ayol ...*

“Unli va undosh fonemalar” mavzusini o'rganish usullari. Fonetika bo'limida fonemalar tasnifini o'rganish asosiy masalalar sirasiga kiradi. Akademik litsey darsligida ushbu mavzu quyidagi kichik mavzularga bo'lingan holda o'rganiladi: unli fonemalar va undosh fonemalar, unli fonemalar tasnifi, undosh fonemalar tasnifi.

Ushbu mavzularni o'rganish yuqorida ko'rib o'tganimizdek, nazariy va amaliy qismlarga bo'lingan holda o'rganiladi. Mavzularning nazariy ma'lumot qismi o'rganilayotganda berilgan unli va undosh fonemalarning talaffuzida ishtirok etayotgan nutq a'zolari harakatiga diqqat qilish kerak bo'ladi. Masalan unli fonemalar talaffuzida labda bo'ladigan harakat, og'izning katta yoki kichik ochilishi, tilning tanglay tomon ko'tarilishi yoki pastki jag' tomon tushishiga e'tibor qaratiladi. Shu asosda unlilar tasnifi uchun ikki asosiy belgi asos vazifasini o'tashi ta'kidlanadi:

- 1) labning ishtiroki;
- 2) og'izning ochilish darajasi (tilning ko'tarilish darajasi).

Ana shu belgi asosida unlilar tasnifi o'rganiladi.

Undoshlar tasnifi o'rganilayotganda ularning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i, til muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. Chunki o'pkadan chiqayotgan havo ana shu nutq apparatlarida turli to'siqlarga uchraydi. Undosh fonemalar tasnifida ko'rgazmali qurodan foydalanish tavsiya etiladi.

Mavzuning amaliy qismini o'rganish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanishni tavsiya etamiz.

1-topshiriq. 1-ish. So'zlarning lug'aviy ma'nosini farqlashda xizmat qilayotgan fonemalarni izohlang: qor-qur-qo'r-qir; sor-sur-so'r-sir-ser; ko'r-kur-kir-kar-kor-ker; tol-to'l-til-tul.

Namuna: qor-qur-qor-qir tovushdosh soʻzlar qatorida *o, u, oʻ, i* unlilari soʻzlarning lugʻaviy maʼnosini farqlash uchun xizmat qilgan. Ularning boshqa-boshqa soʻz ekanligi lugʻaviy maʼnosidan sezilib turibdi. Masalan, *qor* – oq zarrali yogʻin turi, *qur* – davra, maydon; qurmoq feʼli oʻzagi.

2-ish. Tovushdosh soʻzlarning har biri qaysi soʻz turkumiga kirishini aniqlang.

Namuna: qor - ot, turdosh ot, aniq ot, narsa nomi; *ur* – feʼl, harakat feʼli, buyruq mayli...

3-ish. Tovushdosh soʻzlar ishtirokida soʻz birikmalari hosil qiling.

Namuna: oppoq qor, uy qurmoq, qoʻrda pishirmoq, qirda oʻynamoq....

4-ish. Soʻz birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Qishda hamma yoqni oppoq qor qoplaydi. Biz akam uchun yangi uyqurdik...

2-topshiriq. A unlisi bilan boshlanadigan bir boʻgʻinli soʻzlar qatorini tuzing.

Namuna: adl, avj, azm, aql...

3-topshiriq. I-E tovushlari ishtirok etgan soʻzlar juftliklarini tuzing.

Namuna: bir-ber, bil-bel, bit-bet...

4-topshiriq. Soʻzlar juftligining har biriga gaplar tuzing.

Namuna: Birni birov beradi, koʻpni mehnat. Osmondagi oyni olib ber deydi.

5-topshiriq.1-ish. Soʻz oxirida jarangsizlashadigan soʻzlar juftligini hosil qiling.

Namuna: bob-bop, bod-bot, sud-sut, sob-sop...

2-ish. Soʻzlar juftligidagi har bir soʻzning lugʻaviy maʼnosini sharhlang.

Namuna: bob – badiiy, ilmiy va boshqa turdagi asarlarning maʼlum qismi, *bop* - munosib, mos, yaxshi, yarashiqli...

3-ish. Juftlikdagi har bir soʻzning maʼnodoshi yoki uyadoshini toping.

Namuna: bob – boʻlim, qism (maʼnodoshi); *bop* – mos, munosib, yarashiqli (maʼnodoshi); bob, paragraf, jild, kitob, varaq, bet (uyadoshi)...

6-topshiriq. Shaxs va bahs soʻzlarining oʻzaro farqini tushuntiring.

Namuna: Shaxs so'zining ma'nodoshlari: *inson, odam, banda, kishi, fuqaro...* Shaxs so'zining uyadoshlari: *erkak, ayol, o'g'il, qiz, aka, singil...*

1.4. Fonetikani o'rganishda kommunikativ savodxonlikni oshirish usullari

Fonetika bo'limida, asosan, nutq tovushlari, ularning paydo bo'lishida ishtirok etuvchi nutq a'zolarining xizmati, hosil bo'lgan o'rni va usuli, talaffuz va imlo, bo'g'in va bo'g'in ko'chirish, so'z urg'usi kabi mavzular ustida bahs yuritilsada, uning so'z boyligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni ravon, go'zal va ta'sirchan ifodalash imkoniyatlarini anglash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, talaffuz va imlo masalalariga e'tiborni qaratish zarur. Masalan: *unlilar imlosi* o'rganilayotganda *o-a, o-i, i-u, u-o', i-e, o-e*, tovushlari ishtirok etgan so'zlardagi tovush va harf orasidagi munosabatlar izohlanadi: *bar - bir - ber - bor - bur - bo'r; oq - uq - o'q - yuq; qor - qor - qur - qo'r; tar - tor - tir - ter - tur* so'z juftlarida ma'no farqlash vazifasidagi o'yin-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Tovushdosh so'zlar qatori tuziladi, ma'nosi murakkab so'zlar izohlanadi: *qir* - adir, tepalik, lalmi yer; *qur* - bunyod qilmoq, uyni qurmoq; *qo'r* - olov, o'tinning cho'g'idan hosil bo'lgan qoldiq. Ko'chma ma'no: *mol-dunyo, qo'r-qut...*

2. Tovushdoshlar so'z turkumlariga ajratiladi: *uq* - fe'l, *o'q* - ot, *oq* - sifat, *qor* - ot, *tar* - (yangi meva) sifat, *tur* - fe'l...

3. Tovushdoshlar ishtirokida so'z birikmalari va gaplar tuziladi: *til - dil kaliti, uyga kir, o'yga botdi, o'tni o'r, markazga ur* kabi. *Qir-adirlarni oppoq qor qopladi. Tur, to'rga o't. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo (maqol)...*

Jarangli undoshlar aksariyat so'z oxirida kelganda talaffuzda jarangsizlanadi hamda boshqa ma'nodagi so'zlarni yuzaga keltiradi:

bob - bo'lum, qism ma'nosida;

bop - yarashiqli, loyiq ma'nosida;

sud - hukm, mahkama, lavozim...;

sut - mahsulot, sigir suti kabi so'zlarni qiyoslash va o'zaro farqlash, ular ma'nosini sharhlash topshiriqlari o'quvchilarda imlo savodxonligini mustahkamlash bilan bir qatorda, so'z boyligini, nutqiy mahoratni ham oshiradi, shakllantiradi. Ayni paytda, mana shu so'zlar ishtirokida ixcham, ijodiy matn yaratish ham mumkin.

Talaffuzda bir-biriga o'xshash so'zlarni farqlashda, ularga ma'nodoshlar, uyadoshlar, zid ma'noli so'zlarni topishni talab qiluvchi topshiriqlar berish ham samarali usullardan hisoblanadi.

Masalan, *shaxs va bahs* so'zlarining o'zaro farqini tushuntiring, izohlashda ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli so'zlardan foydalaning.

Namuna: Shaxs; ma'nodoshlari: shaxs - inson, odam, banda, kishi...

- uyadoshlar: *kishi, erkak, ayol, ota, o'g'il, aka, uka ...*

- zid ma'nolilar: *erkak-ayol, o'g'il-qiz, aka-singil...*

- *bahs, konferensiya, majlis, yig'ilish...*

- zid ma'no: *bahs-himoya, o'rtoqlashuv, adabiy uchrashuv, qo'llab-quvvatlamog'...*

Talabalar topshiriq asosida so'zdagi nuqtalar o'rniga i va u harflaridan birini qo'yib ko'chiradilar. Hosil bo'lgan so'zlarning ma'nolarini namunadagidek og'zaki sharhlashlari va so'z ma'nolarining farqini tushuntirishlari mumkin.

Namuna:

urish - fe'l so'z turkumi, harakatni bildiradi: musht urish, mushtlashish;

urush - ot so'z turkumi, jang, uyushgan qurolli olishuv.

Masalan: *Ikkinchi jahon urushi 1939 yilida boshlandi;*

yumish - fe'l, ko'z yumish, ko'rmaslikka olish; ko'zi yumildi;

1. Uxladi (o'z ma'no).

2. Ko'chma ma'no: *Ko'z yumdi – chin dunyoga ketdi, o'ldi...* Masalan: *Bu dunyodan ko'z yumdi.*

Yumush - ot so'z turkumi, ish, mehnat: *Og'ir yumushni bajardi...*

Unlilar imlosi va talaffuzi ustida ishlashni quyidagi ijodiy topshiriqlar orqali mustahkamlash mumkin.

1-topshiriq. Berilgan so'zlar ma'nosini sharhlang. So'zdagi undosh tovushni almashtirib, yangi so'zlar hosil qiling: *il, el, choy.*

- *il - in, is, it, ip, ish ...;*

- *el - ep, em, esh, et, en, er, es, ez...;*

- *choy - soy, toy, boy, moy, joy, loy, voy ...*

2-topshiriq. A unlisi bilan boshlanuvchi bir bo'g'inli so'zlar qatori tuzing: *Adl, avj, azm, aql, ark ...* Ma'nolarini sharhlang.

3-topshiriq. U - o' tovushi ishtirok etgan juftliklar tuzing: *uz - o'z, uy - o'y, un - o'n, o'q - uq ...* Ma'nolarini sharhlang.

1.5. Fonetikani o'rganishda mavzulararo va fanlararo aloqadan foydalanish usullari

1- topshiriq - "qochoq" so'zidagi *ch* undoshini boshqa undoshlar bilan almashtirib ko'ring. Hosil qilingan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini farqlash, qiyoslash (leksikologiya) ustida ishleng. Ular yordamida so'z birikmalari hosil qiling (sintaksis).

Namuna: qochoq, qovoq, qozoq, qoloq...

Lug'aviy ma'noning o'zgarishida tovush o'zgarishining ahamiyatini sharhlash namunasi:

Qovoq "qochoq" so'zidan ch undoshini v undoshiga almashtirish natijasida yasalgan bo'lib, undagi harflar va bo'g'inlar soni birxilligi, so'z boshi va oxirida bir xil tovush bilan tugaganligiga qaramay, bir tovushning o'zgarishi natijasida so'z butunlay yangi ma'noga ega bo'ldi.

Qovoq — o'simlik turkumiga kirsa, "qochoq" so'zi ongli mavjudotlar, ya'ni insonlar guruhiga kiritiladi. Ma'no o'zgarishining asl sababi har ikki undoshning so'z tarkibida ikki xil talaffuz qilinishidadir.

1-ish. Qovoq so'zining lug'aviy ma'nosini sharhlang.

Qovoq - (oshqovoq) qovunga o'xshash palak yozib o'suvchi bir yillik o'simlik. U poliz ekinlari turkumiga kiradi, yumaloq, anjirsimon, uzunchoq ko'rinishda bo'lib, iste'mol qilinadigan va dekorativ (chiroyli, tabiiy naqshli)

turlari uchmydi. Turli vitaminlarga boy, shifobaxsh xususiyatlarga ega. Undan turli milliy, xamirli taomlar tayyorlanadi...

2-ish. Qovoq so'zi yordamida so'z birikma (SB) lar hosil qiling: shirin qovoq, katta oshqovoq, oshqovoqning foydasi, oshqovoq manti, dumbali oshqovoq xonim, tomosha qovoqning naqshli bezaklari, qovoqning ta'mi...

3-ish. Hosil qilingan SB lardan badiiy bo'yoqdor gaplar tuzing.

Tadbirkor fermer Isomiddin Ziyotovning dalasida yetishtirilgan katta-katta shirin oshqovoqlarning ta'mi og'zingizda qoladi. Dumbali, oshqovoq mantilar, mazali oshqovoq xonim, achchiqqina qovoq somsalar shaharliklar dasturxonida eng sevib tanovul qilinadigan milliy taomlardan hisoblanadi.

Amaliy ish. Savol va topshiriqlar.

1. O'zbek tilida so'z oxirida qanday tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin?
2. Qaysi tovushlar so'z oxirida jarangsizlanadi?
3. Qaysi tovushlar talaffuzda so'z oxirida tushib qoladi?
4. Talaffuz qilinmasa-da, imloda yoziladigan harflar ishtirok etgan so'zlarga misollar keltiring. (pas(t), sus(t), juf(t)...
5. Mazkur harflarning mavjudligini qanday aniqlaysiz? (Toshkentimiz jamoli, mol go'shti kabi)

Yuqoridagidek topshiriqlarni bajarishda talabalar til materiallarini kuzatadilar, so'zlarni qiyoslaydilar, o'xshash va farqli tomonlarini sharhlaydilar. Mazkur jarayon faqat imlo savodxonligining shakllanishini emas, balki tovush va harflarni farqlash, so'z ma'nosining o'zgarishida to'g'ri talaffuzning o'rni va ahamiyatini tushunib yetishga sabab bo'ladi, talaba so'z boyligining oshishiga, so'zlarni nutqiy vaziyatga qarab to'g'ri tanlash, o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga ham o'rgatadi.

Amaliy ish: So'zning umumiy (grammatik) tahlilidan namuna.

Topshiriq. "Viloyat" so'zini grammatik tahlil qiling.

1-ish. Fonetik tahlil:

[V] - undosh, jarangli, sirg'aluvchi, lab-lab;

[I] — unli, lablanmagan, old qator, tor;

[L] - undosh, jarangli, yon tovush, til oldi;

[O] - unli, lablangan, orqa qator, keng;

[Y] - undosh, jarangli, til o'rta, sirg'aluvchi;

]A] - unli, lablanmagan, old qator, keng;

[T] - undosh, jarangsiz, portlovchi, til oldi.

1.1. So'z olti harf, yetti tovushdan iborat.

1.2. Vi-Io-yat - 2 ta ochiq, 1 ta yopiq bo'g'in, 3 unli, 4 undosh tovushdan tarkib topgan.

2-ish. Morfemik tahlil: *Viloyat* — o'zak, tub so'z.

3-ish. Morfologik tahlil: *Viloyat* - ot, turdosh, sodda, aniq, bosh kelishikda, birlikda, III shaxsda.

4-ish. Leksik tahlil: *Viloyat* - mamlakatdagi yirik ma'muriy-hududiy bo'linma, muzofot, oblast: *Xorazm viloyati, Sirdaryo viloyati...*

Mustaqil ish: Yuqoridagi so'zga ma'nodosh va uyadoshlar topish.

Ma'nodoshlar: *viloyat, muzofot, hudud, oblast...*

Uyadoshlar: *viloyat - davlat, mamlakat, o'lka, elat, yurt, hudud, tuman, mavze, daha, mahalla, depara, ko'cha, hovli...*

5-ish. Topilgan so'zlar ishtirokida so'z birikmasi yoki gap hosil qilish: *Sirdaryo viloyati qadimgi Mirzacho'l hududida joylashgan... Bizning mahallamiz katta anhor yoqasida joylashgan...*

Berilgan topshiriqning birinchi ishi fonetik tahlilga bag'ishlangan bo'lib, unda so'zdagi tovush tasnifi, ochiq va yopiq bo'g'inlar, harf va tovushlar soni aniqlanadi, bo'g'inlarga ajratiladi va sanaladi.

Yuqoridagi ishlar bajarilgach, mazkur so'z morfologik tahlil qilinadi, so'ngra so'zning lug'aviy ma'nosini aniqlash maqsadida uning ma'nodoshlari va uyadoshlari topiladi, ular ishtirokida so'z birikmasi yoki gap hosil qilinadi. So'zning bunday umumiy tahlili talabning ona tilidan egallangan bilimlarini takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish, qolaversa, bilim-ko'nikma va malakalarning amaliy tatbiq darajasini nazorat etish uchun mo'ljallangan. Lekin

grammatik tahlilning o'zi DTS da ko'rsatilgan barcha talablarni amalga oshirish uchun kifoya emas. Grammatik tahlilni DTS talablariga xizmat qildirish uchun til bo'limlarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish, uni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jarayonda ona tili ta'limining bo'limlararo hamda fanlararo aloqasi natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi, tilni sistemali o'rganishning amaliyotga ijobiy ta'siri samarasi seziladi.

Fonetikani o'rganish jarayonida adabiy til va shevalarning lug'atni boyituvchi xususiyatlariga e'tibor berish ham muhimdir. Shunda adabiy til me'yorlariga rioya qilishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati to'liq anglanadi. Ayni paytda fonetikani puxta va ongli o'rganish, tilning boshqa bo'limlarini ham yaxshi o'zlashtirish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Bob bo'yicha xulosa

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonundan keyin respublikamizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish kun tartibiga qo’yildi. Bu islohot ona tili ta’limi oldiga ham muhim vazifalar qo’ydi. Birinchi galda tilning har bir sathini uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida qaysi me’yorda, ya’ni qancha o’qitish kerakligi masalasi hal etildi. Buni fonetika sathi misolida ham yaqqol ko’rish mumkin.

2. Ma’lumki, o’zbek tili mustaqil O’zbekiston Respublikasining davlat tili sanaladi. Shuning uchun ham ta’lim tizimining birinchi bo’g’inida o’zbek tilining o’qitilishi davlat ahamiyatiga molik vazifa sanaladi. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko’pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlab olish ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyadashda ona tili fanining tutgan o’rni va ahamiyati benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tarbiyalash masalasi ko’ndalang bo’lib turgan bir sharoitda bu fanning o’qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

3. O’quvchilar og’zaki va yozma nutqining shakllanganlik darajasi o’z fikrini so’z va gaplar vositasida to’g’ri qura bilish, o’zbek tilining boy imkoniyatlaridan to’laqonli foydalanish, tovushlarni to’g’ri talaffuz etish, ularni yozuvda to’g’ri ifodalay olish, tovush, so’z va gap ohangiga rioya qilish kabilar bilan o’lchanadi. Bu omillarning ko’pchiligi esa tilning fonetika sathi orqali o’quvchilar ongiga singdiriladi.

4. Ona tilini o’qitishdan kelib chiqadigan bosh maqsad o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini shakllantirish ekan, til sathlarini o’qitishni o’quvchilar nutqini o’stirishga xizmat qildirish asosiy vazifalardan sanaladi. Fonetikada tilning tovush tizimi o’rganilsa-da, o’quvchilarning so’z boyligini oshirish uchun katta imkoniyatlar bor. Fonetika mavzulari doirasida bajariladigan turli amaliy-ijodiy ishlar o’quvchilarning so’zga bo’lgan ehtiyojini qondirish uchun imkon yaratadi.

5. Fonetika bo'limida, asosan, nutq tovushlari, ularning paydo bo'lishida ishtirok etuvchi nutq a'zolarining xizmati, hosil bo'lgan o'rni va usuli, talaffuz va imlo, bo'g'in va bo'g'in ko'chirish, so'z urg'usi kabi mavzular ustida bahs yuritilsada, uning so'z boyligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni ravon, go'zal va ta'sirchan ifodalash imkoniyatlarini anglash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, talaffuz va imlo masalalariga e'tiborni qaratish zarur.

6. Fonetikani o'rganish jarayonida adabiy til va shevalarning lug'atni boyituvchi xususiyatlariga e'tibor berish ham muhimdir. Shunda adabiy til me'yorlariga rioya qilishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati to'liq anglanadi. Ayni paytda fonetikani puxta va ongli o'rganish, tilning boshqa bo'limlarini ham yaxshi o'zlashtirish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

II BOB. IMLO QOIDALARINI O‘QITISH USULLARI

Umumta’lim maktablarida imlo qoidalarining ma’lum qismi fonetika bo‘limi bilan birga o‘rganilsa, ayrim imlo qoidalari morfologiya bo‘limi ichida o‘rganiladi. Bu haqda yuqoridagi jadvallardan birida 5-sinfda fonetika bo‘limining mundarijasida ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, imlo bilan bog‘liq mavzular nomini yana qayta keltirish joiz deb bilamiz. O‘quvchilar fonetika bo‘limi doirasida “Talaffuz va imlo me’yorlari”, “Unlilar talaffuzi va imlosi”, “A va O unlilari talaffuzi va imlosi”, “Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi”, “O‘ unlisining talaffuzi va imlosi”, “E unlisining talaffuzi va imlosi”, “Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi”, “G-K, Q-G‘ undoshlari talaffuzi va imlosi”, “Q, G‘ undoshlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shimchalarning qo‘shilishi va ularning imlosi”, “B, M undoshlaridan oldin kelgan N undoshining talaffuzi va imlosi”, “Ayrim harflar izohi. J harfi va tovushi”, “F undoshining talaffuzi va imlosi”, “SH sh va CH ch harflar birikmalari hamda ularning vazifalari”, “Qo‘sh undoshlar talaffuzi va imlosi”, “Tutuq belgisining ishlatilishi”, “Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi” singari mavzular bevosita imlo bilan bog‘lab o‘rganiladigan mavzulardir. Zero, fonetika bo‘limini o‘qitish oldida turgan muhim vazifalardan biri ham o‘quvchilarga imlo qoidalarini o‘rgatishdir. Shu boisdan uzluksiz ta’lim tizimining umuta’lim va o‘rta maxsus (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) bo‘g‘inlarida imlo qoidalarini o‘rganishga alohida ahamiyat beriladi.

Umumta’lim maktablarida tovushlar va ularning imlosi o‘rganilayotganda talaffuzi va yozilishi farq qiladigan so‘zlarga katta ahamiyat beriladi. Masalan *f* undoshi *Fotima, fabrika, fol, fotiha* singari so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida *p* tarzida talaffuz etilishi, lekin imlo qoidasiga ko‘ra *f* yozilishini o‘zlashtirishlari kerak bo‘ldai. Yoki bir qator jarangli undoshlarning so‘z oxirida jarangsizlanishiga e’tibor berish kerak bo‘ladi. Masalan, *kitob, oftob* singari so‘zlardagi *b* jarangli undoshi talaffuzda *p* jarangsiz undosh kabi talaffuz etilishi; *dod, bod, kod* singari so‘zlar oxirida kelgan jarangli *d* undoshining jarangsiz *t* kabi talaffuz etilishi, lekin yozuvda *p* va *t* emas, balki *b* va *d* yozilishini bilishlari talab etiladi.

Akademik litseylar uchun darslik sifatida chop etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida imlo qoidalari alohida bo‘lim sifatida o‘rganish ko‘zda tutilgan. Buning sabablaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustda qabul qilgan qaroridir. Bu qaror “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qarordir. Yangi imlo qoidalari 82 banddan iborat bo‘lib, u quyidagi asosiy bo‘limlarni o‘z ichiga olgan:

Harflar imlosi:

- a) unlilar imlosi (1-7 - bandlar);
- b) undoshlar imlosi (8-32 - bandlar).
2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33-37 - bandlar).
3. Qo‘shib yozish (38-50 – bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56 – bandlar).
5. Ajratib yozish (57-58 – bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (59-74 – bandlar).
7. Ko‘chirish qoidalari (75-82 – bandlar).

Umuman, akademik litseylarda imlo qoidalarini o‘zlashtirish uchun 8 soat vaqt ajratilgan. Har bir imlo qoidasini o‘quvchilar amalda keng qo‘llay olishlari uchun turli mashqlar, mustaqil matnlar berilgan. Quyida ana shu imlo qoidalarini o‘rganish yo‘llari haqida qisqacha so‘z yuritimiz.

2.1. Unlilar imlosi

Yangi imlo qoidalarida unli harflar imlosiga keng o‘rin berilgan. Ajratilgan o‘quv soatida Aa, Oo, Ii, O‘o‘, Ee, Uu unli harflari imlosi o‘rganiladi. Aa unli harflari imlosi o‘rganilayotganda *savol, zamon, bahor* so‘zlarida “o” kabi talaffuz etilsa ham har doim “a” harfi yozilishini; Oo harfi imlosi o‘rganilayotganda boshqa tillardan kirgan *kollej, monitoring, dekloratsiya, omonim, okulist* kabi so‘zlarda keluvchi “o” unlisi talaffuzda “a” aytilsa ham hamisha “o” yozilishi, *tonna, noyabr, boks, tort* singari so‘zlarda “o” kabi aytilsa ham “o” harfi yozilishini; Ii harfi *bilan, bilim, til, tilak, har xil, qism* kabi so‘zlarda qisqa talaffuz etilishi, *badiiy, ommaviy, Lutfiy* singari so‘zlarda “u” unlisiga yaqin talaffuz etilishi, lekin

hamisha “i” harfi yozilishini o‘zlashtirishlari darkor. Shuningdek, O‘o‘ harfi *o‘zbek, o‘lka, o‘simlik* kabi so‘zlarda old qator o‘rta keng, lablanmagan unlini ifodalashi; Ee harfi *e‘lon, ehtirom, fe‘l, bermoq, meros, mone, tole, kofe* kabi so‘zlarda old qator, o‘rta keng, lablanmagan unli tovushni ifodalab kelishini o‘zlashtiradilar.

Unlilar imlosini o‘zlashtirishda qator unlilar sanalgan oa, ao, ia, ai, io, aa harflari kelgan so‘zlar ustida ishlash katta ahamiyatga ega. Chunki bu unlilar qatnashgan so‘zlarning talaffuzi bilan yozilishida ma‘lum tafovutlar uchraydi. Qator kelgan unlilar qatnashgan so‘zlarning deyarli hammasi o‘zlashma so‘zlardir. Shuning uchun ularning imlosiga oid quyidagi qoidalarni o‘quvchilar ongiga chuqur singdirish talab etiladi:

a) qator kelgan ikki unli bir unli sifatida cho‘ziq talaffuz etiladi, ammo yozuvda ikki unli saqlanadi: *muallim – ma:lim, muattar – ma:tar, muallif – ma:lif, maosh – mo:sh* kabi;

b) qator kelgan unlilar orasiga ayrim undosh tovushlar qo‘shib talaffuz qilinadi, ammo yozuvda o‘zi saqlanadi: *soat – sohat* yoki *sog‘at, biologiya – biyologiya, giologiya – giyologiya, tabiat – tabiyat* kabi.

Unli harflar talaffuzi va imlosini o‘rganishda quyidagi amaliy-ijodiy ishlarni bajarish maqsadga muvofiqdir:

- so‘zlarni o‘qish va tarkibidagi unlilarning talaffuzi va imloosini sharhlash;
- tarkibida “i” unlisi bo‘lgan bir bo‘g‘inli so‘zlar ro‘yxatini tuzish, ularni qatnashtirib gaplar tuzish;
- tarkibida “o” unlisi bo‘lgan o‘zlashma so‘zlar lug‘atini tuzish. Bu so‘zlarning talaffuzi va imlosini sharhlash;
- qator kelgan unlilar mavjud bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzish, ularning talaffuzi va imlosini izohlash kabilar.

2.2. Undoshlar imlosi

Undoshlar va ularning imlosi masalasi akademik litsey o‘quvchilari uchun yangilik emas. Chunki umumta’lim maktabining 5-sinfida fonetika bo‘limida bir qator undoshlarning imlosi masalasi o‘rganilgan va o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursida undoshlar imlosi alohida mavzular sifatida o‘rganiladi. Ma’lumki, “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” da undoshlar imlosi masalasi 14 badda o‘rganilgan. Undoshlar imlosi bilan bog‘liq masalalar sirasi quyidagilardan iborat bo‘lib, uni 6-jadvalda quyidagicha ifodalaymiz:

6-jadval

T/R	Undoshlar	Imlo qoidasi
1	”B” tovushining talaffuzi va imlosi.	Borib, javob, hisob, bob, xitob kabi so‘zlarda “p”, qibla, tobla so‘zlarida “v” tarzida aytilsa ham “b” yoziladi.
2	”V” tovushining talaffuzi va imlosi.	Avtomat, avtobus, avtomobil kabi so‘zlarda “v” tovushi “f” tarzida talaffuz qilinsa-da, doimo “v” yoziladi.
3	”F” tovushining talaffuzi va imlosi.	Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl singari so‘zlarda “f” tovushi “p” kabi aytiladi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim “f” yoziladi.
4	”D” tovushining talaffuzi va imlosi.	Obod, ozod, tadbir, tadqiqot kabi so‘zlarda “d” tovushi “t” tarzida aytilsa-da, har vaqt “d” yoziladi.
5	”Z” tovushining talaffuzi va imlosi.	Iztirob, tuzsiz, bo‘zchi so‘zlarida “z” tovushi “s” kabi aytiladi, biroq hamisha asliga mos ravishda “z” yoziladi.
6	”J” harfining imlosi.	Jon, jahon, juma, g‘ijjak, vaj so‘zlarida til oldi, jarangli, portlovchi “j” harfini ifodalaydi. Jurnal, ajdar, garaj, gijda so‘zlarida esa til oldi, jarangli, sirg‘aluvchi “dj” undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.
7	”SH” harfi.	Shahar, shimol, shoshmoq, osh, bosh kabi so‘zlarda til oldi, jarangsiz, sirg‘aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi. SH harfi ikki tovushni ifodalab kelsa, ular orasida tutuq belgisi qo‘yiladi: is’hoq, as’hob kabi.
8	”CH” harfi.	Bu harf chumoli, choy, achchiq, soch kabi so‘zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.
9	”R, L, N, G, K, Y, NG, Q, G‘, X, H” harflari.	“R” harfi rahm, diyor; “P” harfi lola, bol, olmoq; “n” harfi non, ona, osmon; “g” harfi gul, ega, eg; “k” harfi kam, ikki, tok; “y” harfi yetti, yuz, dunyo, toy; “ng” harfi ko‘ngil, tong, ong; “q” harfi qiz, oq, aql; “g” harfi g‘oz, og‘a, tog‘; “x” harfi xalq, axborot, baxt; “h” harfi hamma, hosil, ehson, isloh kabi so‘zlarda muayyan tovushlarni ifodalash uchun yoziladi.
10	Qator undoshlarning talaffuzi va	Farzand, band, poyezd so‘zlaridagi “d” undoshi,

	imlosi.	go'sht, past, artist so'zlaridagi "t" undoshi talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi.
11	Qo'sh undoshlarning talaffuzi va imlosi.	Metall, kilovatt, kongress kabi so'zlar oxiridagi qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushirib qoldirilsa ham yozuvda hamisha ifodalanadi.
12	Tutuq belgisi.	A'lo, ta'lim, e'lon, she'r, fe'l kabi so'zlarda unidan keyin kelib, uning cho'ziqroq aytilishini ta'minlaydi. Mo'jiza, mo'tabar, mo'tadil kabi so'zlarda "o'" unlisi cho'ziqroq aytiladi, lekin tutuq belgisi qo'yilmaydi. San'at, in'om, mas'ul kabi so'zlarda unidan oldin qo'yilib, uning undosh tovushdan ajratib aytilishini ta'minlaydi.

Undoshlarning imlo qoidasini amaliyotga qo'llash, berilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida 188-, 189-mashqlar ustida amaliy ishlar olib boriladi. Bundan tashqari, litsey o'quvchilari bilan quyidagi tartibda amaliy-ijodiy ishlar olib borish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- berilgan matndan kerakli undoshlarni topib, talaffuzi va imlosini sharhlash;
- "O'zbek tilining imlo lug'ati" dan qator undoshlar, qo'sh undoshlar va tutuq belgisi bilan yozilgan so'zlarni topib, ularning talaffuzi va imlosi ustida ishlash;
- o'rganilayotgan undoshlar qatnashgan so'zlar topish, ularning talaffuzi va imlosini izohlash;
- o'rganilayotgan undoshlar qatnashgan so'zlarni qatnashtirib gaplar tuzish kabi.

2.3. Asos va qo'shimchalar imlosi

Asos va qo'shimchalar imlosini o'rganish umuta'lim maktablarida ham, akademik litsey va kasb-hunar ta'limida ham eng muhim masalalar sirasiga kiradi. Chunki so'zlarning asosiga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida so'z asosiga yoki qo'shimchada, yoki ularning har ikkida fonetik o'zgarishlar ro'y beradi. Bu hol so'zlarni to'g'ri yozishda o'quvchilarga qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shunday ekan akademik litsey darsligida bu hodisaga doir imlo qoidasi kiritilgan. Bu qoidalarni o'quvchilar ongli tarzda o'zlashtirishlari kerak. Quyida

ana shu masalalarga oid ayrim imlo qoidalari xususida fikr yuritishga harakat qilamiz.

1. “A” unlisi bilan tugagan fe’llarga –v, -q, -qi qo‘shimchalari qo‘shilganda “a” unlisi “o” unlisi kabi aytiladi va u yozuvda shunday yoziladi: *sayla – saylov, qayna – qaynoq, sayra – sayroqi kabi.*

Shuningdek, *o‘qi – o‘quvchi, sovi –sovuq, to‘qi – to‘quvchi* so‘zlarida “i” unlisi “u” unlisiga o‘zgaradi.

2. Asosi “k” va “q” harflari bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilsa, ular “g” va “g’” ga aylanadi: *yurak – yuragi, bilak – bilagi, tilak – tilagim, buloq – bulog‘im, quloq – qulog‘ing, qishloq – qishlog‘i kabi.*

Lekin erk, ishtirok, huquq, ravnaq singari so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilsa, asosda o‘zgarish ro‘y bermaydi: *erki, ishtirokim, huquqing, ravnaqi.*

3. Ayrim so‘zlar asosiga qo‘shimcha qo‘shilganda tovush tushushi hodisasi ro‘y beradi.

Singil, o‘rin, ko‘ngil, o‘g‘il, shahar singari so‘zlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilsa unli tovush (i, a) nutqda tushib qoladi va shunday yoziladi: *singlim, o‘rni, ko‘ngling, o‘g‘li, shahrim* singari.

Qayir, ayir singari fe’l asosga nisbat qo‘shimchalari qo‘shilsa, tovush tushushi ro‘y beradi: *qayril, ayril* kabi.

Ikki, olti, yetti singari miqdor sonlarga jamlovchi son hosil qiluvchi qo‘shimchalar qo‘shilsa i unlisi tushib qoladi: *ikkov, oltovlon, yettov* kabi.

4. *U, bu, shu* o‘sha singari kshrsatish olmoshlariga –da, -dan, -day, *dagi, -cha* qo‘shimchalari qo‘shilsa, bir “n” tovushi orttiriladi va yozuvda shunday yoziladi: *unda, bunday, shunday, o‘shanday, undagi, undash, unga, bunga* kabi.

5. *Parvo, obro‘, mavqe, avzo* so‘zlariga 1- va 2-shaxs egalik qo‘shimchalari qo‘shilsa, bir “y” tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *parvoyim, obro‘yim, mavqeyim* kabi.

6. –*boz, -bon* qo‘shimchalari –*vos, -von* kabi talaffuz etilsa-da, doimo asl shakli bo‘yicha yoziladi: *dorvoz (dorboz), bog‘bon.*

7. Orttirma nisbat hosil qiluvchi *-dir* qo‘shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli so‘zlarga qo‘shiladi: *yondir, bordir, quvdir*. *Kel* so‘ziga esa *-tir* shaklida qo‘shiladi. Boshqa so‘zlarda ham *-tir* shaklida aytiladi va yoziladi: *ektir, uyultir, kestir* kabi.

8. *-ga, gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina* qo‘shimchalari so‘z asoslariga qo‘shilganda uch xil variant shaklida aytiladi va yoziladi: *ertaga, eshikka, boqqa* kabi.

“g”, “g” bilan tugagan ayrim so‘zlarga qo‘shilganda esa o‘zgarmaydi: *bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha* kabi.

Darslikda bu imlo qoidalarini amalda qo‘llab ko‘rish, nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida bir qator mashqlar berilgan. Masalan, 190-, 191-mashqlarda asosga qo‘shilgan qo‘shimcha tufayli bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlarni sharhlash vazifasi qo‘yilgan. O‘quvchilar mashqdagi gaplar bilan tanishar ekanlar o‘zlashtirilgan imlo qoidalarini amaliyotga qo‘llashga intiladilar. 190-mashqning bajarilish yo‘llarini ko‘rib o‘tamiz. O‘quvchilar birinchi galda so‘zlarni asos va qo‘shimchalarga ajratib chiqadilar. So‘ngra so‘z tarkibida sodir bo‘layotgan fonetik o‘zgarishlarni aniqlaydilar va ularning talaffuzi va yozilishini sharhlashga harakat qiladilar.

So‘zlar quyidagi tartibda tarkibiy qismlarga ajratilib o‘rganiladi: *ong+la – angla, sana+q+siz – sanoqsiz, yashna+v+chan -yashnovchan, past+ay+moq – pasaymoq, sust+ay+moq – susaymoq, yig‘la+qi – yig‘loqi, dumala+q – dumaloq* kabi.

2.4. Qo‘shib va ajratib yozish

Nutqimizda ko‘plab qo‘shma va qisqartma so‘zlar qo‘llaniladiki, ularning imlosini bilish o‘quvchilar uchun juda muhimdir. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursida bu masala alohida o‘rganiladi. Quyida shu haqda to‘xtalamiz.

Quyidagi qo‘shma va qisqartma so‘zlar qo‘shib yoziladi:

1. *Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so‘zlar yordamida yasalgan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: *oshxona,*

tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qo'ymijoz, maymunsiyat, kamhosil, bug'doyrang va hakazo.

2. *-r, -ar, -mas* qo'shimchasi bilan yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqmas* kabi.

3. Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma otlar, sifatlar qo'shib yoziladi: *toshbaqa, oybolta, qo'yko'z, sherdil, otquloq* singari.

4. Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo'ljallanganligi, o'rni kabi ma'nolarni bildiruvchi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *ko'ksulton, oqbosh, achchiqtosh, ko'zoynak, suvilon* kabi.

5. Ikkinchi qismi turdosh ot yoki obod so'zi bilan yasalgan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Oqtepa, Uchqo'rg'on, Davlatobod, Xo'jaobod* kabi.

Ammo ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan *Markaziy Osiyo, Ko'hna Urganch, G'arbiy Yevropa* kabi joy nomlari ajratib yoziladi.

6. Ruscha-baynalmilal yoki tarjima qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *telestudiya, fotoapparat, radioto'lqin, elektrarra*.

7. Qisqartma so'zlar har doim qo'shib yoziladi: *O'zMU, "O'zolmosoltin", ToshDPU, BMT* kabi.

Quyidagi qo'shma so'zlar ajratib yoziladi:

1. Qo'shma fe'l, shuningdek, ko'makchi fe'lli qo'shilmalar doimo ajratib yoziladi: *kirib chiqdi, olib keldi, oshkor etdi, aytib qo'ya qoldi, o'qib chiqdi* kabi.

2. Har, hech, bir, u, shu, o'sha, hamma kabi so'zlar o'zi birikib kelgan so'zdan ajratib yoziladi: *har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, o'sha joyda, hamma vaqt* kabi.

3. Ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan ajratib yoziladi: *Vatan uchun, siz bilan, shahar tomon*.

Bilan, uchun ko'makchilarining qisqargan *-la, -chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *onam-la, sen-chun* kabi.

4. Sifatning orttirma darajasini yasovchi *to'q, och, tim, tang, jiqqa* kabi so'zlar ajratib yoziladi: *tim qora, och ko'k, to'q sariq*.

5. Qo'shma sonlar ajratib yoziladi: *o'n to'qqiz, bir yuz yigirma* kabi.

6. *Yildan yilga, kundan kunga* kabi ko‘rinishdagi birliklar ajratib yoziladi.

7. *Nuqtai nazar, tarjimai hol, dardi bedavo* kabi izofali birikmalar ham ajratib yoziladi.

Yuqoridagi imlo qoidalarini amaliyotga qo‘llash va o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun 192-, 193-, 194-mashqlar ustida bir qator ishlar bajariladi.

2.5. Bosh harflar imlosi

Bosh harflar imlosi ham o‘quvchilar o‘zlashtirishlari kerak bo‘lgan zaruriy bilimlar sirasiga kiradi. Bu mavzu umumiy ta’lim maktablarida ham ma’lum darajada o‘rganilgan. Akademik litseylarda bosh harflar imlosi yaxlit mavzu sifatida o‘rganiladi. O‘quvchilarga ushbu mavzu doirasida quyidagi bilimlar berish ko‘zda tutilgan:

1. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi, nasl-nasabi bosh harflar bilan yoziladi: *Sobirov Shokirjon Shukurjonovich, Abdurauf Fitrat, G‘aznaviylar kabi.*

2. Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, shaharchalar, daryo, tog‘, tepa, adir nomlari ham bosh harf bilan yoziladi: *Hindiston, Muborak, Urgut, Tentaksoy, Qo‘ng‘irot, Qashqadaryo, Qora dengiz va hakazo.*

3. Korxonalar, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san’at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh harf bilan yoziladi: *“Malika” firmasi, “Sharq” nashriyot matbaa konserni, “O‘zqishloqxo‘jmarsholding” kompaniyasi, “Damas” avtomobili, Qizilqum fasfor kombinati, “Amudaryo” jurnali, “Shaytanat” asari.*

4. Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi: *Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami, Xotira va qadrlash kuni.*

5. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomi bosh harf bilan yoziladi: *O‘zbekiston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Yevropa Ittifoq Kengashi kabi.*

6. *Mudofaa vazirligi, Davlat test markazi, "Umid" jamg'armasi, Xususiylik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi* kabi tashkilotlar nomining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.

7. Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan yoziladi: *"O'zbekiston Qahramoni" unvoni, "Oltin Yulduz" medali.*

Shuningdek, *"Sog'lom avlod uchun" ordeni, "Shuhrat" medali* singari mukofotlarning birinchi soʻzi bosh harf bilan yoziladi.

8. Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi:

Har qanday intilish, izlanish, ijod xalq manfaatlariga xizmat qilsagina u qadrlidir (A.Oripov).

Ushbu imlo qoidalarini mustahkamlash maqsadida ikkita mashq berilgan. Ularda bosh harflarining ishlatilish oʻrinlarini izohlash talab etilgan. Oʻquvchilarni mustaqil amaliy ishlarni bajarishga yoʻnaltirish uchun ona tili fani oʻqituvchilari alohida amaliy ishlar sirasini tuzishi ham mumkin. Masalan, maʼlum bir atoqli otlarning roʻyxatini tuzdirish, berilgan matndan atoqli otlarni topib, ularning imlosini sharhlash kabi ishlar shular jumlasidandir.

2.6. Chiziqcha bilan yozish va koʻchirib yozish qoidalari

Oʻquvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda ushbu qoidalar ham muhim oʻrin tutadi. Shuning uchun ham oʻquvchilar chiziqcha bilan yoziladigan soʻzlar imlosini hamda satrdan satrga koʻchirib yozish qoidalarini puxta oʻzlashtirishlari darkor.

Quyidagi soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi:

1. Juft va takror soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi: *ota-ona, orzu-umid, kecha-kunduz, tog'-tog', sekin-sekin* kabi.

2. Juft soʻzlar orasida *-u, -yu* yuklamalari ishlatilsa, ular birinchi soʻzdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *erta-yu kech, osh-u non, oy-u quyosh, bola-yu chaqa* kabi.

3. *Qop-qora, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri* kabi kuchaytirma sifatlar chiziqcha bilan yoziladi.

4. *Uyma-uy, oyma-oy, dam-badam* singari oʻrtasida *-ma* yoki *ba-* qoʻshimchalari kelgan soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi.

5. *-mi, -gina, -oq (-yoq)* yuklamalaridan tashqari barcha affiks yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi, biz-a, keldi-da, ukasi-ku*.

6. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa chiziqcha ishlatiladi: *26-uy, 6-xona, 2001-yil*.

Rim raqamlaridan soʻng chiziqcha qoʻyilmaydi: *XXI asr, X bob kabi*.

Bizga maʼlumki, satrga sigʻmay qolgan soʻzning boʻgʻinlari ikkinchi satrga koʻchiriladi. Bu borada ham maʼlum qoidalar mavjud boʻlib, oʻquvchilar bu qoidalarni puxta oʻzlashtirishlari kerak. Koʻchirib yozish qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Satrga sigʻmay qolgan soʻzlar keyigi qatorga boʻgʻin asosida koʻchiriladi: *tad-birkor, tadbir-kor, kol-lej, taʼ-lim kabi*.

2. Soʻz boshida kelgan yolgʻiz unli hech vaqt yakka oʻzi qoldirilmaydi: *eʼ-lon emas eʼlon, u-ka emas uka, mudofa-a emas mudo-faa*.

3. Soʻz tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda koʻchiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya, foto-grafiya kabi*.

4. *sh, ch, ng* harflar birikmasi doim birgalikda yoziladi: *ko-shona, pu-chuq, de-ngiz kabi*.

5. Qisqartma soʻzlar, yil, oy, raqam bilan yozilgan sonlar keyingi qatorga koʻchirilmaydi: *OʻzMU, 2001, 19, XXI kabi*.

6. *IX "A" sinf, 26-uy, 100 kg, 25 sm, 10 mm* kabi koʻrinishdagi birikmalar ham bir-biridan ajratilmaydi.

Ushbu imlo qoidalarni mustahkamlash uchun toʻrtta mashq berilgan boʻlib, chiziqcha bilan yozish va koʻchirib yozishga oid imlo qoidalarini amalda qoʻllash uchun yetarli deb oʻylaymiz.

Bob bo'yicha xulosa

1. Umumta'lim maktablarida tovushlar va ularning imlosi o'rganilayotganda talaffuzi va yozilishi farq qiladigan so'zlarga katta ahamiyat beriladi. Masalan *f* undoshi *Fotima, fabrika, fol, fotiha* singari so'zlarning birinchi bo'g'inida *p* tarzida talaffuz etilishi, lekin imlo qoidasiga ko'ra *f* yozilishini o'zlashtirishlari kerak bo'ldi. Yoki bir qator jarangli undoshlarning so'z oxirida jarangsizlanishiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

2. Akademik litseylar uchun darslik sifatida chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida imlo qoidalari alohida bo'lim sifatida o'rganish ko'zda tutilgan. Buning sabablaridan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustda qabul qilgan qaroridir. Bu qaror "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarordir.

3. Yangi imlo qoidalarida unli harflar imlosiga keng o'rin berilgan. Ajratilgan o'quv soatida *Aa, Oo, Ii, O'o', Ee, Uu* unli harflari imlosi o'rganiladi. Undoshlar va ularning imlosi masalasi akademik litsey o'quvchilari uchun yangilik emas. Chunki umumta'lim maktabining 5-sinfida fonetika bo'limida bir qator undoshlarning imlosi masalasi o'rganilgan va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursida undoshlar imlosi alohida mavzular sifatida o'rganiladi. Ma'lumki, "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" da undoshlar imlosi masalasi 14 bandeda o'rganilgan.

4. Asos va qo'shimchalar imlosini o'rganish umuta'lim maktablarida ham, akademik litsey va kasb-hunar ta'limida ham eng muhim masalalar sirasiga kiradi. Chunki so'zlarning asosiga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida so'z asosiga yoki qo'shimchada, yoki ularning har ikkida fonetik o'zgarishlar ro'y beradi. Bu hol so'zlarni to'g'ri yozishda o'quvchilarga qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

5. Nutqimizda ko'plab qo'shma va qisqartma so'zlar qo'llaniladiki, ularning imlosini bilish o'quvchilar uchun juda muhimdir. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursida bu masala alohida o'rganiladi.

6. Bosh harflar imlosi ham o'quvchilar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan zaruriy bilimlar sirasiga kiradi. Bu mavzu umumiy ta'lim maktablarida ham ma'lum darajada o'rganilgan. Akademik litseylarda bosh harflar imlosi yaxlit mavzu sifatida o'rganiladi. O'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda ushbu qoidalar ham muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham o'quvchilar chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosini hamda satrdan satrga ko'chirib yozish qoidalarini puxta o'zlashtirishlari darkor.

UMUMIY XULOSA

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonundan keyin respublikamizda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish kun tartibiga qo’yildi. Bu islohot ona tili ta’limi oldiga ham muhim vazifalar qo’ydi. Birinchi galda tilning har bir sathini uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida qaysi me’yorda, ya’ni qancha o’qitish kerakligi masalasi hal etildi. Buni fonetika sathi misolida ham yaqqol ko’rish mumkin.

2. Ma’lumki, o’zbek tili mustaqil O’zbekiston Respublikasining davlat tili sanaladi. Shuning uchun ham ta’lim tizimining birinchi bo’g’inida o’zbek tilining o’qitilishi davlat ahamiyatiga molik vazifa sanaladi. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko’pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlab olish ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimiz ruhida tarbiyadashda ona tili fanining tutgan o’rni va ahamiyati benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tarbiyalash masalasi ko’ndalang bo’lib turgan bir sharoitda bu fanning o’qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

3. O’quvchilar og’zaki va yozma nutqining shakllanganlik darajasi o’z fikrini so’z va gaplar vositasida to’g’ri qura bilish, o’zbek tilining boy imkoniyatlaridan to’laqonli foydalanish, tovushlarni to’g’ri talaffuz etish, ularni yozuvda to’g’ri ifodalay olish, tovush, so’z va gap ohangiga rioya qilish kabilar bilan o’lchanadi. Bu omillarning ko’pchiligi esa tilning fonetika sathi orqali o’quvchilar ongiga singdiriladi.

4. Ona tilini o’qitishdan kelib chiqadigan bosh maqsad o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini shakllantirish ekan, til sathlarini o’qitishni o’quvchilar nutqini o’stirishga xizmat qildirish asosiy vazifalardan sanaladi. Fonetikada tilning tovush tizimi o’rganilsa-da, o’quvchilarning so’z boyligini oshirish uchun katta imkoniyatlar bor. Fonetika mavzulari doirasida bajariladigan turli amaliy-ijodiy ishlar o’quvchilarning so’zga bo’lgan ehtiyojini qondirish uchun imkon yaratadi.

5. Fonetika bo'limida, asosan, nutq tovushlari, ularning paydo bo'lishida ishtirok etuvchi nutq a'zolarining xizmati, hosil bo'lgan o'rni va usuli, talaffuz va imlo, bo'g'in va bo'g'in ko'chirish, so'z urg'usi kabi mavzular ustida bahs yuritilsada, uning so'z boyligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash, fikrni ravon, go'zal va ta'sirchan ifodalash imkoniyatlarini anglash va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, talaffuz va imlo masalalariga e'tiborni qaratish zarur.

6. Fonetikani o'rganish jarayonida adabiy til va shevalarning lug'atni boyituvchi xususiyatlariga e'tibor berish ham muhimdir. Shunda adabiy til me'yorlariga rioya qilishning ham nazariy, ham amaliy ahamiyati to'liq anglanadi. Ayni paytda fonetikani puxta va ongli o'rganish, tilning boshqa bo'limlarini ham yaxshi o'zlashtirish uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

7. Umumta'lim maktablarida tovushlar va ularning imlosi o'rganilayotganda talaffuzi va yozilishi farq qiladigan so'zlarga katta ahamiyat beriladi. Masalan *f* undoshi *Fotima, fabrika, fol, fotiha* singari so'zlarning birinchi bo'g'inida *p* tarzida talaffuz etilishi, lekin imlo qoidasiga ko'ra *f* yozilishini o'zlashtirishlari kerak bo'ldi. Yoki bir qator jarangli undoshlarning so'z oxirida jarangsizlanishiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

8. Akademik litseylar uchun darslik sifatida chop etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida imlo qoidalari alohida bo'lim sifatida o'rganish ko'zda tutilgan. Buning sabablaridan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustda qabul qilgan qaroridir. Bu qaror "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarordir.

9. Yangi imlo qoidalarida unli harflar imlosiga keng o'rin berilgan. Ajratilgan o'quv soatida *Aa, Oo, Ii, O'o', Ee, Uu* unli harflari imlosi o'rganiladi. Undoshlar va ularning imlosi masalasi akademik litsey o'quvchilari uchun yangilik emas. Chunki umumta'lim maktabining 5-sinfida fonetika bo'limida bir qator undoshlarning imlosi masalasi o'rganilgan va o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursida undoshlar imlosi alohida mavzular sifatida o'rganiladi. Ma'lumki, "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" da undoshlar imlosi masalasi 14 bandeda o'rganilgan.

10. Asos va qo‘shimchalar imlosini o‘rganish umuta’lim maktablarida ham, akademik litsey va kasb-hunar ta’limida ham eng muhim masalalar sirasiga kiradi. Chunki so‘zlarning asosiga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida so‘z asosiga yoki qo‘shimchada, yoki ularning har ikkida fonetik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu hol so‘zlarni to‘g‘ri yozishda o‘quvchilarga qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

11. Nutqimizda ko‘plab qo‘shma va qisqartma so‘zlar qo‘llaniladiki, ularning imlosini bilish o‘quvchilar uchun juda muhimdir. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursida bu masala alohida o‘rganiladi.

12. Bosh harflar imlosi ham o‘quvchilar o‘zlashtirishlari kerak bo‘lgan zaruriy bilimlar sirasiga kiradi. Bu mavzu umumiy ta’lim maktablarida ham ma’lum darajada o‘rganilgan. Akademik litseylarda bosh harflar imlosi yaxlit mavzu sifatida o‘rganiladi. O‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda ushbu qoidalar ham muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham o‘quvchilar chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar imlosini hamda satrdan satrga ko‘chirib yozish qoidalarini puxta o‘zlashtirishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq. 1997.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq. 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. –Toshkent: O'zbekiston. 1995.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. 56 b.
7. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.
8. Aliqulov S.R., Sobirov U.Q. Kattalarni o'qitishda interfaol metodlarni qo'llash tajribasi. // Ta'lim texnologiyalari. Journ., 2010. №4. 6-8-b.
9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2006. 160 b.
10. Golish L.V. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish. – T., 2001.
11. Hamroyev G'. Ona tili darslarida fonetika ustida ishlash. // Til va adabiyot ta'limi. Journ., 2010. №9.
12. Jabborov E. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –Qarshi: Nasaf, 2008.
13. Jabborov E., Tilovova G., Meyliyeva G. O'zbek tili o'qitishning amaliy metodikasi. – Qarshi: Nasaf, 2010.
14. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.

15. Mahmudov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
16. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshq. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: Manaviyat, 2007.
17. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
18. Po‘latov I., Ahmedova H. Ona tili darslarida didaktik o‘yinlar. // Til va adabiyot ta’limi. Jurn., 2010. №8.
19. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
20. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili. - Toshkent, 1999.
21. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Beshinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
22. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Birinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
23. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Ikkinchi jild. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
24. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. To‘rtinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
25. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. Uchinchi jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
26. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. –Toshkent, O‘qituvchi, 1992.
27. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodlari. – Toshkent: Universitet, 2001.
28. G‘ulomov Y. va boshq. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975.